

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

*Qo'lyozma huquqida*  
**UDK:**

Komilov Bunyod Abduvoyitovich

**MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA  
UY XO'JALIKLARI MOLIYASINI TASHKIL ETISH VA UNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

Mutaxassisligi: 5A111001-Kasb ta'limi (Moliya)

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A S I Y A**

Ilmiy rahbar: i.f.n. I.I.Soliev

Namangan-2013

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                             |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Kirish.....</b>                                                                                                                                                          | <b>3</b>   |
| <b>I bob. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasining nazariy asoslari</b>                                                                     |            |
| 1. Uy xo'jaligi moliyasining mohiyati va moliya tizimida tutgan o'rni .....                                                                                                 | 7          |
| 2. Uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning o'ziga xos jihatlari .....                                                                                         | 24         |
| 3. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaligi moliyasini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....                                                          | 31         |
| 4. Uy xo'jaligi moliyasiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar .....                                                                                                        | 40         |
| <b>II bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasini rivojlantirish masalalari</b>                                                          |            |
| 1. Uy xo'jaligi moliyasi va uning tarkibi .....                                                                                                                             | 50         |
| 2. Uy xo'jaliklarida jamg'armalarni shakllantirish va yo'naltirish masalalari....                                                                                           | 63         |
| 3. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uy xo'jaliklari moliyaviy. barqarorligini ta'minlashda davlatning aholi turmush darajasini yaxshilash borasidagi siyosati ..... | 68         |
| <b>III bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasini takomillashtirish yo'nalishlari</b>                                                   |            |
| 1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash .....                                                                       | 81         |
| 2. Uy xo'jaligi moliyasini mustahkamlashda davlat rolining kuchayishi .....                                                                                                 | 84         |
| <b>Xulosa .....</b>                                                                                                                                                         | <b>97</b>  |
| <b>Adabiyotlar ro'yxati .....</b>                                                                                                                                           | <b>101</b> |

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Uy xo'jaliklari bir yoki bir nechta odam tomonidan umumiy byudjetga ega bo'lib faoliyat yuritadigan xo'jalik faoliyati hisoblanadi. Uy xo'jaligi o'ziga yirik va kichik kapital, yer, mulk, qimmatli qog'ozlar egalarini ularni jamiyat ishlab chiqarishda qatnashishdan qat'iy nazar o'zida birlashtiradi.

Uy xo'jaligini boshqarish, oilani ishlab chiqarish faoliyatini shaklini oladi. Uy xo'jaligida oila iste'molini qondirishga mo'ljallangan mahsulotlar va xizmatlar amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklari bozorda doimo sotish uchun mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, oilani mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdan yoki o'z tomorqasida tovar yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan dalolat beradi. Uy xo'jaligida bozorda sotish uchun to'xtovsiz mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, shuningdek, o'z tomorqasida tovar yo'nalishidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish xususiy tadbirkorlikni anglatadi. Bir vaqtning o'zida uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi, u esa bozor iqtisodiyoti tamoyillariga rioya qilinayotganidan dalolat beradi. Bu esa uy xo'jaligini mamlakat yalpi ijtimoiy daromadini bir qismini jamg'arishda, real va moliyaviy aktivlarni sotib olish orqali moliyaviy zahiralarini hosil qilishda ishtirok etish orqali o'z daromadlarini mustahkamlab, soliq to'lovchisi sifatida davlatning markazlashtirilgan moliyaviy fondlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uy xo'jaliklari moliyasi – bu uy xo'jaligining a'zolarining xar bir a'zosi tomonidan hamda ularning umumlashgan mehnati orqali pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish natijasida vujudga keluvchi iqtisodiy pul munosabatlari yig'indisidir.

Shu o'rinda aytish joizki. Jahon iqtisodiy va moliyaviy maydonida global siljishlar kuzatilayotgan ayni sharoitlarda mamlakatimizda uy xo'jaliklari moliyasining asosiy elementi aholi daromadlarini barqarorligini ta'minlash va oshirish bilan bog'liq davlat siyosati ahamiyati katta bo'lmoqda. Hech kimga sir

emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012 yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.

2013 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajada oshirish, 2013 yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir.

O'tgan 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda<sup>1</sup>.

Uy xo'jaliklar moliyasi hozirgi davr muammolarini tadqiq qilish va ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular esa magistrlik dissertatsiya ishining dolzarbligini ko'rsatib beradi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Uy xo'jaliklar moliyasi taraqqiyotining xozirgi davr muammolarini tadqiq qilishda, iqtisodchi olimlarimizdan – S.A.Belozerov, S.G.Gorbushina, V.V. Kovalev, Belozorov S.A., G.B. Polyaka, Z.Yu. Yuldashev, T.S. Malikov, N. Haydarov, S. G'ulomov, Sh. Shodmonov, Yo. Abdullaev, Yu.Dodaboev, A. Ortiqov, A. Nazarov, Q. Abdurahmanov. F. Mamarasulov, M. Pardaevlarning mavzuga e'tibor qaratganlarini keltirish mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi mamlakatni moedrnizatsiya qilish sharoitlarida mamlakatimizda uy xo'jaliklar

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: Xalq so'zi gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, 13 (5687)-soni.

moliyasi tadqiq qilish, avjud muammolarni aniqlash va yechimlarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot o'z oldiga quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Uy xo'jaliklari moliyasining mohiyati va tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish;
- Uy xo'jaliklari daromadlari shakllanishi jarayonlarini o'rganish;
- Uy xo'jaliklari xarajatlari va jamg'armalarini tadqiq qilish;
- Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida aholi daromadlarini oshirish zarurligi va yo'nalishlarini yoritib berish;
- Uy xo'jaligi moliyasini mustahkamlashda davlat rolining kuchayishini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning predmeti.** Tadqiqotning predmeti uy xo'jaliklari moliyasi barcha elementlari qaraladi.

**Tadqiqotning ob`ekti.** Tadqiqot ob`ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush tarzi va ahvoli olindi.

**Dissertatsiya ishining uslubiy va nazariy asoslari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakat iqtisodiy siyosatiga oid asarlari, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uy xo'jaliklari moliyasi va uni takomillashtiri bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasining uy xo'jaliklari moliyasini tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Magistrlik dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Uy xo'jaligi moliyasining mohiyati va moliya tizimida tutgan o'рни iqtisodchi olimlarning nazariyalari asosida tadqiq qilingan.
2. Uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

3. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaligi moliyasini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritib berilgan.
4. Uy xo'jaligi moliyasiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar tadqiq qilingan.
5. Uy xo'jaligi moliyasi va uning tarkibi o'rganilgan.
6. Uy xo'jaliklarida jamg'armalarni shakllantirish va yo'naltirish masalalari tadqiq qilingan.
7. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uy xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlatning aholi turmush darajasini yaxshilash borasidagi siyosati yoritilgan.
8. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari bayon qilingan
9. Uy xo'jaligi moliyasini mustahkamlashda davlat rolining kuchayishi tadqiq etilgan.

**Tadqiqotni amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning amaliy natijalari mamlakatimizda uy xo'jaliklari moliyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari yaratilgan ishimizdan kasb-hunar kollejlari talabalarni o'qitishda foydalanishga yo'naltirilishi mumkin.

**Tadqiqotni tarkibiy tuzilishi.** Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida, mavzuning dolzarbligi, o'rganilganligi, maqsadi, vazifalari, ahamiyati yoritib berilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishi birinchi bobida mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasining nazariy asoslari yoritilgan.

Ikkinchi bobda esa iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining uchinchi bobida Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasini takomillashtirish yo'nalishlari yoritilib, uning qator yechimlari berilgan.

## **I bob. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasining nazariy asoslari**

### **1. Uy xo'jaligi moliyasining mohiyati va moliya tizimida tutgan o'rni**

Uy xo'jaliklari moliyasi har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bozor munosabatlari tizimida uy xo'jaliklarining moliyaviy ahamiyati uning iqtisodiy jihatdan nimaga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Bir tomondan, uy xo'jaliklari ishlab chiqarish omillarining, ya'ni mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va boshqalarning xususiy egalari hisoblanadi hamda xuddi shu asosda o'zlarining daromadlar manbalari va moliyaviy tushumlarini shakllantiradi.

Uy xo'jaliklari mamlakatni iqtisodiy faoliyatida, o'zlarining moliyaviy natijalariga ko'ra, nafaqat alohida xo'jalik birligi sifatida, balki mamlakatning barcha aholisi baho beradigan iqtisodiy sub'ekti deb qaraladi. Davlat va turli mulkchilik shaklidagi korxonalar bilan birgalikda iqtisodiyotning yirik sub'ekti sifatida uy xo'jaligi ham davlatning makrotartibga soluvchi barcha jarayonlarida qatnashadi. Har qanday davlatda ham chuqur iqtisodiy krizislar davrida, moddiy ahvolni yomonlashuvi uy xo'jaliklarini aktiv faoliyat ko'rsatishga undaydi.

Iqtisodiy nazariyasiga ko'ra uy xo'jaliklari deyilganda, bir yoki bir nechta odam tomonidan umumiy byudjetga ega bo'lib yashay oladigan xo'jalik faoliyati tushuniladi. Uy xo'jaligi o'ziga yirik va kichik kapital, yer, mulk, qimmatli qog'ozlar egalarini ularni jamiyat ishlab chiqarishda qatnashishdan qat'iy nazar o'zida birlashtiradi.

Uy xo'jaligini boshqarish, oilani ishlab chiqarish faoliyatini shaklini oladi. Uy xo'jaligida oila iste'molini qondirishga mo'ljallangan mahsulotlar va xizmatlar amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklari bozorda doimo sotish uchun mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, oilani mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdan yoki o'z tomorqasida tovar yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan dalolat beradi. Uy xo'jaligida bozorda sotish uchun to'xtovsiz mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, shuningdek, o'z

tomorqasida tovar yo'nalishidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish xususiy tadbirkorlikni anglatadi. Bir vaqtning o'zida uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi, u esa bozor iqtisodiyoti tamoyillariga rioya qilinayotganidan dalolat beradi. Bu esa uy xo'jaligini mamlakat yalpi ijtimoiy daromadini bir qismini jamg'arishda, real va moliyaviy aktivlarni sotib olish orqali moliyaviy zahiralarni hosil qilishda ishtirok etish orqali o'z daromadlarini mustahkamlab, soliq to'lovchisi sifatida davlatning markazlashtirilgan moliyaviy fondlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa bir xususiyatiga ko'ra, uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi. Demak, bozor talabini belgilab beradi. Bir vaqtning o'zida, uy xo'jaliklari jamiyat yalpi daromadining bir qismini jamg'aradi, real va moliyaviy aktivlarni sotib olish orqali moliyaviy zahiralarni yaratishda ishtirok etadi, soliq to'lovlari orqali esa davlatning markazlashtirilgan moliyaviy fondlarini shakllantirishda katta (muhim) rol o'ynaydi.

Odatda, «uy xo'jaligi» atamasidan milliy statistikada aholidan iborat bo'lgan institutsional birlikni ifodalash uchun foydalanmoq kerak. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan Milliy hisoblar tizimining zamonaviy xalqaro andozasi uy xo'jaligini yagona yashash maydonchasida birgalikda yashayotgan, umumiy fondga o'zlarining daromadlari va boyliklarini to'liq yoki qisman o'tkazayotgan va ayrim tovarlar hamda xizmatlarni, eng asosan uy-joy va iste'mol mahsulotlarini umumiy tarzda iste'mol qilayotgan kishilarning katta bo'lmagan guruhi, deb ta'riflaydi<sup>2</sup>.

Ayrim hollarda o'zbek iqtisodiy adabiyotida «uy xo'jaligi» atamasining «xonadon» yoki «oila» atamalari bilan almashtirilishiga yo'l qo'yilmoqda. Shunga mos ravishda «uy xo'jaligi moliyasi» iborasining o'rniga «xonadon moliyasi» va «oila moliyasi» iboralari ham ekvivalent yoki sinonim iboralar

---

<sup>2</sup> A.V.Vahobov, T.S.Malikov. Moliya. Darslik. T.: Noshir, 2012 yil, 559-bet.



shaklida ishlatilmoqda<sup>3</sup>. Shu munosabat bilan «oila» yoki «xonadon»ni «uy xo'jaligi»dan ajratmoq lozim. Eng avvalo, «uy xo'jaligi» aniqlilik darajasining «oila»ga nisbatan kamroq darajada cheklangan xarakterga ega ekanligini qayd etib o'tmoq lozim. Masalan, o'zlarining o'g'illariga tegishli bo'lgan joyda yashayotgan keksa ota-onalar uy xo'jaligining a'zolari bo'lsalar-da, uning oilasi bo'lolmaydi. Xuddi shuningdek, bir xonani ijaraga olgan talaba uy-joy egasining uy xo'jaligi tarkibiga kiradi, lekin uning oilasi tarkibiga kirolmaydi va h.k. Boshqacha aytganda, uy xo'jaligi qarindosh bo'lmaganlarni ham o'z ichiga olishi yoki bir kishidan iborat ham bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ta'kidlash joizki, uy xo'jaligining iqtisodiy jihatdan aniqliligini belgilashda oilaviy aloqalar asosiy omil bo'la olmaydi. Buning ustiga, uy xo'jaligining miqdoriy tarkibi ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar, eng avvalo, shu bilan belgilanadiki, birgalikda yashayotgan va umumiy xo'jalikni yuritayotgan shaxslar guruhi ham va bir vaqtning o'zida, o'zining iste'molini mustaqil ravishda ta'minlayotgan yagona bir shaxs ham uy xo'jaligi bo'lib hisoblanishi mumkin. Uy xo'jaligini xo'jalik yuritishning mustaqil iqtisodiy va moliyaviy birligi sifatida ajratilishi quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilmog'i lozim:

- birgalikda (bir joyda) yashash;
- umumiy byudjetning mavjudligi;
- iqtisodiy qarorlarni birgalikda (hamkorlikda) qabul qilish.

Uy xo'jaliklari moliyasi moliya tizimining muhim elementi hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida u uy xo'jaliklarida iste'mol maqsadlari va jamg'arish uchun pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga oid bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iboratdir. Ana shuni e'tiborga olgan holda uy xo'jaliklari moliyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: uy xo'jaliklarida iste'mol maqsadlari va jamg'arish uchun pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga tegishli

---

<sup>3</sup> A.V.Vahobov, T.S.Malikov. Moliya. Darslik. T.: Noshir, 2012 yil, 560-bet.

bo'lgan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar majmuiga uy xo'jaliklari moliyasi deyiladi.

Iqtisodiy fanlarda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning alohida olingan sohasida bir xilda va doimiy ravishda vujudga keladigan munosabatlar mustaqil iqtisodiy kategoriyaning mazmunini tashkil etishi umume'tirof etilgan. Bu o'rinda gap «uy xo'jaliklari moliyasi» kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni to'g'risida ketmoqda. Ana shuni inobatga olgan holda uy xo'jaliklari moliyasiga quyidagicha ta'rif ham berish mumkin: o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlari jarayonida uy xo'jaliklari va ularning alohida a'zolari ishtirokida pul mablag'lari maqsadli fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasida vujudga keladigan pul munosabatlarining majmui uy xo'jaliklari moliyasi deb ataladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari o'zlarining ichida va o'zlariga nisbatan tashqi bozor sub'ektlari sanalganlar bilan moliyaviy munosabatda bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda uy xo'jaliklarida mavjud bo'lgan moliyaviy munosabatlar majmuini ikki guruhga bo'lish mumkin: ichki va tashqi.

Individlar - uy xo'jaligi a'zolarining ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish maqsadida zaruriy pul fondlarini (joriy iste'mol darajasini, pul zahiralarini, investitsiyalashtirishni ushlab turish uchun va h.k.) shakllantirish va ulardan foydalanishga oid uning ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar uy xo'jaligining ichki moliyaviy munosabatlari hisoblanadi.

Uy xo'jaliklarining tashqi moliyaviy munosabatlari ularning boshqa iqtisodiy sub'ektlar bilan bo'lgan o'zaro aloqalari orqali namoyon bo'ladi. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi bilan uy xo'jaliklari bevosita o'zaro bog'langan: firmalarda iqtisodiy resurslarni taqdim etib, ularning egalari sifatida uy xo'jaliklari yaratilgan mahsulotning qiymatidan o'z hissalarini oladilar va demak, ular shu bilan yalpi mahsulotni birlamchi taqsimlashda ishtirok etadilar. Bu munosabatlar o'zining yana bir muhim iqtisodiy tomoniga ega: ular iqtisodiyotda aholi daromadlarining boshlang'ich darajasini belgilab beradiki, bu narsa, o'z navbatida, iste'molning shakllanishi, ko'lami va tarkibiy tuzilmasiga, to'lovga layoqatli talabning shakllanishiga va nihoyat, uy xo'jaliklari tomonidan

jamg'arish funksiyasining amalga oshirilishiga to'g'ridan-to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat va uy xo'jaliklari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar ham to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va qaytarma (yana orqaga qaytariluvchi) aloqalar asosida quriladi va ular byudjet hamda nobyudjet fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi munosabatlarni ifodalaydi. Uy xo'jaliklarining daromadlari va mol-mulkleri soliqqa tortilish ob'ekti sifatida maydonga chiqadi va demak, byudjet tizimi daromadlar bazasining tuzilmaviy elementi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida soliqlar, pensiya tizimi, ijtimoiy transfertlar orqali davlat moliyaviy oqimlarni uy xo'jaliklarining turli guruhleri o'rtasida qayta taqsimlaydi. Uy xo'jaliklari va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida milliy daromadning ikkilamchi qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromadning taqsimlanish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish instrumentlariga ega emas. Moliyaviy munosabatlarning bu sohasi davlat tomonidan eng kam darajada reglamentatsiya qilinadi. Buning sababi shundaki, uy xo'jaliklari pul fondlarini shakllantirishning zarurligi, usuli va maqsadi to'g'risida, ularni sarflashning o'lchami va vaqti xususida (562) qarorlar qabul qilishda mustaqildir. Shu bilan birgalikda davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromad va yakuniy iste'molning o'lchamiga ta'sir etishi mumkin. Bu narsa, jumladan, quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- soliq orqali tartibga solish;
- mehnat haqini to'lash stavkalarini o'rnatish;
- birinchi darajali zaruriy mahsulotlar baholarini tartibga solish;
- imtiyozlar tizimi;
- sog'liqni saqlash va maorifni byudjetdan moliyalashtirish orqali ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish.

Uy xo'jaliklarining o'zlari o'rtasidagi (uy xo'jaliklariaro) moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklari sektorining ichida moliyaviy resurslarning harakatlanishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar sifatida qaraladi. Bu

yerda ushbu jarayon hamma vaqt ham oydinlashmagan va kuchsiz tartibga solinuvchi hisoblanadi. Moliyaning bu sohasiga, jumladan, quyidagilarni kiritish mumkin:

- fermer xo'jaliklarining hamkorlikdagi maqsadli fondlari;
- iste'mol kooperatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi fondlar;
- uy xo'jaliklari o'rtasidagi norasmiy kredit munosabatlari;
- uy xo'jaliklari sektori doirasida (chegarasida) hamkorlikdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususidagi boshqa munosabatlar.

Uy xo'jaliklarining moliyaviy institutlar bilan o'zaro aloqalari moliyaviy munosabatlarning alohida guruhini ifodalaydi. Ularning kredit muassasalari bilan munosabatlari uy xo'jaligi byudjeti defitsitini to'ldirish (iste'mol krediti vositasida, yordamida), bo'sh turgan pul mablag'larini bank hisob varaqlarida joylashtirish yoki ularni saqlash va jamg'arish maqsadida boshqa moliyaviy aktivlarga qo'yish orqah namoyon bo'ladi. Uy xo'jaliklarining sug'urta (563) kompaniyalari bilan bo'ladigan munosabatlari esa turli ko'rinishdagi sug'urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida namoyon bo'ladi.

Moliyaning mohiyati uning funktsiyalari orqali namoyon bo'lganligi uchun uy xo'jaliklari moliyasining mohiyati ham uning funktsiyalari yordamida ifodalanadi. Uy xo'jaliklari moliyasining funktsiyalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- taqsimlash;
- takror ishlab chiqarish;
- nazorat;
- tartibga solish (tartiblash);
- rag'batlantirish;
- ijtimoiy.

Uy xo'jaliklari moliyasining bu funktsiyalari o'zaro bog'langan va bir-birini doimiy ravishda to'ldirib turadi. Bir vaqtning o'zida, ma'lum ma'noda va ma'lum darajada ular o'zlarining namoyon bo'lishiga qarab moliyaning umumiy funktsiyalaridan biroz farqlanishi ham mumkin.

Ma'lumki, uy xo'jaliklarining moliyasi taqsimlash jarayonini oxirgi bosqichgacha, ya'ni aniq individgacha yoki uy xo'jaligining har bir a'zosigacha yetkazadi. Uy xo'jaliklari moliyasi taqsimlash (564) funktsiyasining amalga oshirilishi aholi hayotiy mablag'lari fondini shakllantirishni taqozo etadi, insonni takror ishlab chiqarish uchun iqtisodiy (moliyaviy) asos yaratadi.

Ma'lumki, uy xo'jaliklarining ishtirokchilari qatoriga balog'at yoshiga yetmaganlar yoki yetgan bo'lsa-da, turli sabablarga ko'ra ishlamayotgan oila a'zolari ham kiradi. Uy xo'jaliklarining hissasiga to'g'ri kelgan milliy daromadning bir qismi uy xo'jaliklari moliyasining taqsimlash funktsiyasi doirasida uning barcha ishtirokchilari o'rtasida u yoki bu nisbatlarda taqsimlanadi. Uy xo'jaliklarining moliyasi taqsimlash funktsiyasini bajara borib, har bir shaxsni uning hayotiyligi uchun kerak bo'lgan resurslar bilan ta'minlab, oxir oqibatda, ishchi kuchi takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Bu o'rinda taqsimlash funktsiyasining ta'sir ob'ekti uy xo'jaligiga tegishli bo'lgan daromad hisoblanadi. Taqsimlash jarayonining sub'ektlari sifatida esa uy xo'jaliklarining barcha ishtirokchilari maydonga chiqadi.

Uy xo'jaliklari moliyasining taqsimlash funktsiyasi turli shakllarda, jumladan, investitsion-taqsimlash funktsiyasi sifatida amalga oshirilishi mumkin. Uning bu (investitsion-taqsimlash) shakli shu bilan xarakterlanadiki, uy xo'jaliklari iqtisodiyot uchun moliyaviy resurslarni asosiy yetkazib beruvchilardan biri hisoblanadi. Uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi bu funktsiya bajarilishining moddiy asosini tashkil etadi. Ko'pchilik hollarda uy xo'jaliklarining investitsion funktsiyasi faqat kapitallashtiriladigan daromadlarning salmog'i, ya'ni daromadning jamg'arma sifatida foydalaniladigani (mablag'larni turli moliyaviy institutlarga va haqiqiy ishlab chiqarishga joylashtirish) bilan bog'lanadi. Biroq bunday yondoshuv bir tomonlamalik xarakteriga ega. Haqiqatda esa, o'z navbatida, iste'mol salmog'ining oshishi ham iqtisodiyotga investitsiyalarning o'sishiga ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi.

Bir vaqtning o'zida, yuqoridagi asoslarda takror ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchi va shuningdek, uy xo'jaliklarining pul mablag'lari bilan ta'minlanadi. Bu yerda uy xo'jaliklari moliyasining takror ishlab chiqarish funksiyasi alohida rol o'ynaydi. Uy xo'jaliklari daromadlari, xarajatlari va jamg'armalarining o'sishi jamiyatdagi takror ishlab chiqarish jarayoni uchun moddiy asos bo'lib xizmat qiladi. (565)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi, ya'ni uy xo'jaliklari a'zolarining turmush darajasi uning hissasiga to'g'ri kelayotgan daromadning o'lchamiga to'liq bog'liqdir. Turli omillar ta'siri natijasida bu o'lcham ortishi yoki qisqarishi ham mumkin. Shuning uchun ham iste'molning odatdagi darajasini saqlab turishni olingan daromadlarning turli fondlarga taqsimlanishi va ularning maqsadli foydalanishi ustidan nazoratsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, uy xo'jaliklarining farovonligini qo'llab-quvvatlash va ularni rivojlantirish uchun ular byudjetlarining holatlari, ularga tegishli bo'lgan daromadlarning taqsimlanishi, daromad manbalarining dinamikasi ustidan nazorat qilib turish ham ob'ektiv ravishda zarurdir. Ana shularda uy xo'jaliklari moliyasining nazorat funksiyasi o'zini namoyon etadi.

Uy xo'jaliklari moliyasi tartibga solish funksiyasining namoyon bo'lishini quyidagi ikki nuqtai-nazardan qarash maqsadga muvofiq:: makroiqtisodiy va mikroiktisodiy.

Makroiqtisodiy yondoshuv uy xo'jaliklari moliyasi, bir vaqtning o'zida, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning ob'ekti va instrumenti hisoblanadi. Uy xo'jaliklari moliyasini tartibga solib, davlat, eng avvalo:

- bozor munosabatlariga xos bo'lgan daromadlarni tabaqalashtirish muammosining o'tkirligini kamaytiradi;
- aholi daromadlari manbaining tarkibiy tuzilishi va dinamikasidagi tendentsiyalarni shakllantiradi;
- iste'molning minimal darajasini tartibga soladi;
- uy xo'jaliklarining investitsion salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Mikroiqtisodiy yondoshuv nuqtai-nazaridan esa uy xo'jaliklarining iqtisodiyoti uning turli ishtirokchilari o'rtasidagi yetarli darajada murakkab bo'lgan munosabatlar kompleksiga (566) asoslanadi. Bu munosabatlar yosh borasidagi farqlar, xarakterning belgilari, odamlarning qiliqlari, ular daromadlari va ehtiyojlarining xilma-xil darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda, faqat uning ishtirokchilari iqtisodiy-moliyaviy) qarorlar qabul qilishda o'zaro tushunishga ega bo'lsalargina, uy xo'jaliklarining sog'lom rivojlanishi sodir bo'lishi mumkin. O'z navbatida, uy xo'jaliklarining turli ishtirokchilari iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish ularni tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda «ularni tartibga solish» deyilganda, uy xo'jaligining bir a'zosiga to'g'ri keladigan daromad bir qismining o'zgartirilishi nazarda tutilayapti. Demak, bundan uy xo'jaliklari moliyasining yana bir funktsiyani-iqtisodiy birlik sifatida uy xo'jaligining muvozanatli tarzda rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish funktsiyasini-bajarishi yaqqol ko'rinib turibdi.

Uy xo'jaliklari moliyasining rag'batlantiruvchi funktsiyasi turli shakl va mazmunda o'zini ifoda etadi. Bir tomondan, u o'z o'sib boruvchi ehtiyojlarini (ehhtiyojlarning o'sib borishi obektiv iqtisodiy qonunining harakatiga muvofiq ravishda) qondirish uchun zarur bo'lgan daromadlarni uy xo'jaliklari tomonidan oshirishga intilish tufayli namoyon bo'ladi. Boshqa bir tomondan esa, uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi mehnat faoliyatining sifati va natijalariga asoslangan bo'lmog'i lozim.

Uy xo'jaliklari moliyasining rag'batlantiruvchi funktsiyasi aholi real daromadlarining o'sishiga yo'naltirilgan ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishiga va samarali byudjet siyosatiga asoslangan rag'batlantiruvchi moliya mexanizmini (moliyaviy mexanizmni) yaratish orqali amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklari moliyasi amal qilishining ijtimoiy jihatlariga unga tegishli bo'lgan yuqoridagi barcha funktsiyalarning tahlilida kuzatiladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ijtimoiy funktsiyasining uy xo'jaliklari moliyasiga tegishli bo'lgan alohida funktsiya sifatida qaralishini, ma'lum ma'noda, yetarli darajada asoslangan deb hisoblash mumkin. Chunki uy xo'jaliklarining

daromadlari, xarajatlari va jamg'armalari aholi va uning alohida guruhlari ijtimoiy-iqtisodiy holatini bevosita aks ettiradi, shaxsning shakllanishi va demografik jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ana (567) shu ma'noda, uy xo'jaliklari moliyasi jamiyat barcha a'zolarining hayotiy ta'minlanish darajasini shakllantirish va iste'mol talabi tarkibiy tuzilishining xususiyatlarini aniqlaydi, aholi daromadlarini taqsimlashdagi bog'liqliklarni ifodalaydi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy stratifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy indikatorlar (masalan, o'rtacha jon boshiga to'g'ri keluvchi pul daromadlari, aholi daromadlarining differensiasiyalanish (tabaqalanish) koeffitsienti, hayot ko'rish (yashash) minimumi, minimal ish haqi va boshqalar taraqqiyot (rivojlanish) ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarining majburiy elementi hisoblanadi, davlat ijtimoiy siyosatining ishlab chiqilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, jamiyatning farovonlik darajasini baholashga imkon beradi.

Uy xo'jaliklari moliyasining samarali faoliyat ko'rsatishi uy xo'jaliklaridagi moliyaviy munosabatlarning masshtabi, bu munosabatlar namoyon bo'lishi xilma-xilligining to'liqligi va ularning rivojlanishini ta'minlovchi mexanizmlarga bog'liqdir.

Iqtisodiyoti rivojlangan g'arb davlatlari iqtisodiy adabiyotlari uy xo'jaliklari daromadlarini doimiy va vaqtinchalik davrlarga ajratadi. Doimiy daromad – bu inson tomonidan kutiladigan kelajakdagi saqlanadigan daromad. Bu turdagi daromadga o'zgarmas iqtisodiyotda mehnatga to'lanadigan to'lovlar hisoblanadi. Vaqtinchalik daromadga kelgusida olinishi gumon bo'lgan daromadlar hisoblanadi, masalan, hissadorlik jamiyat faoliyati to'xtatilishi natijasida qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadni yo'qolishi. Bu holat hozirda bizning republikamizda kuzatilmoqda.

Oila byudjeti daromadlari uy xo'jaliklari iste'moli xajmiga bog'liq bo'ladi. Yildan yilga qaytariladigan doimiy daromad oilaning o'zgaruvchan xarajatlariga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazmaydi. O'z navbatida o'zgaruvchan daromad nafaqat oilaning balki butun mamlakatning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir



ko'rsatishi mumkin. U alohida davrlarda tovar va xizmatlarga qo'shimcha talabni vujudga keltirib bozordagi holatni murakkablashtirishi mumkin.

Davlat bozor sharoitida uy xo'jaliklari byudjeti xajmiga, pul va moddiy mablag'larni doiraviy aylantirishga o'z ta'sirini o'tkazish orqali kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir quyidagilarda o'z aksini topadi:

- soliq tizimi orqali – uy xo'jaliklari soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy ajratmalar to'laydi;

- davlat sektori xodimlariga ish xaqi to'lanadi;

- davlat tomonidan turli xildagi moddiy farovonlik va xizmatlar amalga oshiriladi;

- davlat tomonidan narxlashtirish orqali baholarni tartibga solish va boshqalar.

Umume'tirof etilgan iqtisodiy qonuniyatga ko'ra moliyaning mohiyati uning funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Bu qonuniyat uy xo'jaliklari moliyasiga ham tegishlidir. Lekin uy xo'jaligi moliyasining funktsiyalarini aniqlash mamlakatimiz va chet el iqtisodchi olimlari tomonidan ko'pgina baxs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham ular tomonidan bir qancha klassifikatsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Rossiyalik iqtisodchilar S.A.Belozarov va S.G.Golbushinalar uy xo'jaliklari moliyasi uchun eng ahamiyatli funktsiya – bu taqsimlash funktsiyasi deb e'tirof etadilar.<sup>4</sup> Ular uy xo'jaliklari moliyasini qiymatini taqsimlashdagi shartli ob'ektiv vosita sifatida umumiy moliyaga tenglashtiradilar. Hamda umumiy moliyaning maxsuslashgan maqsadi va yo'nalishi mamlakatda yaratilgan Yalpi ijtimoiy mahsulotni pul shaklida namoyon bo'lgan qiymatini turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik sub'ektlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashga qaratilgan bo'lsa, uy xo'jaligi moliyasi bu qiymatni uy xo'jaligi a'zolari o'rtasida taqsimlashni davom ettiradi deb hisoblaydilar, hamda uy xo'jaligi moliyasi taqsimlash jarayonini oxirgi darajasida bosh rolni o'ynaydi deb baholaydilar.

---

<sup>4</sup> «Финансы» учебник 2-е издание, перерыт. и доп. С.А.Белозеров, С.Г.Горбушина и др, под ред. В.В.Ковалева. – М.: ТК Велби, Из-во Проспект. 2005 – 512 с.

Uy xo'jaligi a'zolari tarkibiga balog'at yoshiga yetmaganlar hamda o'zlari balog'at yoshida bo'lganlar lekin turli sabablarga ko'ra ishlamayotganlar ham kiritiladi, lekin daromadlarni taqsimlashda ular ham teng huquqli oila a'zosi hisoblanadi.

Uy xo'jaliklari moliyasi taqsimlash funktsiyasi orqali ishlab chiqarish omili sifatida ishchi kuchini to'xtovsiz qayta ishlab chiqarish orqali oilani moddiy resurslar bilan ta'minlaydi va har bir uy xo'jaligi a'zosini hayotini davom ettirishiga sharoit yaratadi.

Uy xo'jaligi moliyasini taqsimlash funktsiyasining ob'ekti bo'lib – uy xo'jaligi egalik qiladigan daromad hisoblanadi, bu daromad uy xo'jaligi yaratgan yalpi daromadning majburiy soliqLar va to'lovlar to'langandan keyin uning ixtiyorida qolgan mablag'dir.

Uy xo'jaligi moliyasining yana bir funktsiyasi bu nazorat hisoblanadi. Uy xo'jaligi bozor sharoitida mustaqil faoliyat yurituvchi sub'ekt hisoblanganligi uchun, uy xo'jaligi har bir a'zosini hayot darajasi uning ulushiga to'g'ri keladigan daromad darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu darajaga o'z navbatida bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar daromadlarni oshishiga yoki aksincha kamayishiga sabab bo'lish mumkin. Shuning uchun ham uy xo'jaligi iste'molni bir tekisda olib borish uchun ham turli manbaalardan olingan pul fondlarini tarkibini va ularni maqsadli ishlatilishi ustidan doimiy nazorat olib boradi.

Uy xo'jaligi iqtisodi uning turli ishtirokchilari orqali o'ta murakkab moliyaviy aloqalarga asoslanadi. Bu aloqalar uy xo'jaliklari a'zolarining turlicha yoshdaligi, harakterlari har xilligi, ularning odatlari, iste'mol darajasi va daromadlari turlichaligi bilan izohlanadi. Uy xo'jaligining normal ravishda rivojlanishi uchun a'zolarining iqtisodiy qarorlarni qabul qilishdagi o'zaro hamjihatligi va bir-birini tushunishlariga bog'liqdir. Uy xo'jaligi a'zolarining iqtisodiy qiziqishlarining o'zaro muvofiqligi ularning har biriga to'g'ri keladigan daromadni o'zgartirish imkoniyatini yaratadi va daromadni tartibga soladi. Demak uy xo'jaligi moliyasi uy xo'jaligini yagona maqsadga birlashtirib,

daromad va iste'molni birlashtirish orqali tartibga solish funksiyasini ham bajaradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joyizki uy xo'jaliklari darajasida moliyaviy resurslarni taqsimlash orqali rivojlanish o'zini-o'zi tartibga solish vositasida amalga oshiriladi. Bu jarayonni amalga oshirishda uy xo'jaligi a'zolarining mustaqilligi davlat tomonidan chegaralanishi mumkin emas.

Shunday qilib uy xo'jaliklari moliyasiga davlat moliya tizimining bir unsuri sifatida baho berish mumkin bo'ladi. Moliyaviy sohaning boshqa ishtirokchilariga qaraganda uy xo'jaliklari moliyasiga davlat tomonidan kam ta'sir o'tkaziladi. Masalan turli xil maqsadli markazlashgan pul fondlari va davlat byudjetining shakllanishi va ishlatilishi davlat tomonidan qattiq nazorat ostiga olinadi. Shuningdek turli mulkchilik shaklidagi korxonalar moliyaviy faoliyati (ustav kapitalining minimal darajasi, soliqqa tortish tizimi, amortizatsiya ajratmalari, monopol mahsulot ishlab chiqarish, tannarxning ba'zi bir elementlari v x.k), davlat tomonidan tartibga solib boriladi. Uy xo'jaliklari pul mablag'larining zaruriyati va maqsadi, ularning xajmi hamda foydalanish yo'nalishi bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladilar. Boshqacha qilib aytganda bozor sharoitida uy xo'jaliklari egalik qiladigan daromadni taqsimlanishiga davlat to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazmaydi.

Lekin shunga qaramasdan davlat uy xo'jaligi egalik qiladigan umumiy daromad miqdoriga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Uy xo'jaligi egalik qiladigan real daromadlar uy xo'jaligi bilan davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni realizatsiya qilish natijasida hosil qilingan Yalpi ijtimoiy mahsulotni ko'p marotabalab taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida tashkil etiladi. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar miqdorining o'sishi uy xo'jaligi real daromadini kamayishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda soliqlar vositasida hosil bo'lgan moliyaviy resurslarni byudjet orqali sog'liqni saqlashga, ta'limga, ijtimoiy ta'minotga yo'naltirilishi natijasida uy xo'jaligi real daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yalpi takror ishlab chiqarish tizimida uy xo'jaliklarining eng ahamiyatli funksiyalaridan bo'lib investitsiya maydonga

chiqmoqda. Bu o'z navbatida uy xo'jaligining iqtisodiyotiga moliyaviy resurslarni yetkazib berishdagi asosiy ta'minotchiligi bilan izohlanmoqda. Uy xo'jaliklari daromadlarining ortishi ushbu funktsiyani bajarilishida moddiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Uy xo'jaliklarining investitsiya faoliyati ko'p xollarda uning kapitallashgan daromadlari ulushi bilan bog'lanadi, aslida esa bu qarashlar bir tomonlamadir, chunki uy xo'jaligi iste'molining o'sishi iqtisodiyotdagi investitsiyalarning o'sishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Bu voqeylikka xatto iqtisodchi olim Dj.Keyns ham iste'mol va investitsiya aralashmasidan tashkil topadigan samarali talab kontseptsiyasini ishlab chiqishda o'z e'tiborini qaratgan.

Qanday omillar ta'sirida bo'lishdan qat'iy nazar iste'mol xarajatlarini kamayishi ishlab chiqarishni rivojlanishini to'xtatib turishga xizmat qiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar tomonidan to'lanadigan ish xaqini kam bo'lishi ishlab chiqarish va tovar aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.<sup>5</sup>

Uy xo'jaligi moliyasining asosiy funktsiyalari to'g'risidagi Rossiya iqtisodchilarining ikkinchi klassifikatsiyasi ham mavjud bo'lib unda:<sup>6</sup>

1. uy xo'jaligi a'zolarini moddiy, ijtimoiy-madaniy farovonlik va xizmatlar bilan ta'minlash funktsiyasi bozor sharoitida byudjet sohasidagi iqtisodiy islohotlar natijasida pullik xizmatlarni rivojlanishi bu funktsiya rolini o'sishiga xizmat qilmoqda;
2. taqsimlash funktsiyasi.

Uy xo'jaliklari moliyasini boshlang'ich va bosh vazifasi bo'lib oilaning hayotiy ehtiyojini qondirish hisoblanadi. U oila a'zolarini yashashi uchun real sharoit yaratadi. Respublikamizda bozor munosabatlarini rivojlanishi bosh funktsiyaga o'z mohiyat jihatidan aktiv ta'sir ko'rsatdi. Natural xo'jalik ishlab chiqarish vaqtida oila tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot oila ehtiyojini qondirgan va ortiqcha mahsulotni ayrboshlash xollari kamdan – kam kuzatilgan.

Tovar – pul munosabatlarini va bozorni rivojlanishi natijasida:

---

<sup>5</sup> Белозоров С.А. Сущность и функции финансов домашних хозяйств. СПбГУ. Сер 5 экономика 2006 ст. 78-87.

<sup>6</sup> Финансы: учебник для студентов вузов. Под ре. Г.Б.Поляка 3-е изд. перерейбат и доп. М: ЮНИТИ – ДАНА, 2007 ст.703.

- oilani moddiy, ijtimoiy – madaniy va boshqa extiyojlari ortib bordi;
- uy xo'jaliklarida pul mablag'lari tashkil etildi va ular miqdori o'sib bordi;
- oila moddiy farovonligini ta'minlashga yo'naltiriladigan pul fondi, oila byudjeti vujudga keldi.

Uy xo'jaliklari moliyasini taqsimlash funktsiyasi milliy daromadni dastlabki taqsimlanishini qamrab oladi va oilani dastlabki daromadlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uy xo'jaliklari moliyaviy munosabatlari quyidagi ikkita guruhdan iborat;

- uy xo'jaligi bilan, moliya tizimining boshqa bo'g'inlari o'rtasidagi aloqalardan (davlat moliyasi, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar bilan) ish xaqi, nafaqa va boshqalar orqali oilani dastlabki daromadini tashkil etish orqali;

- uy xo'jaligi a'zolari o'rtasidagi pul fondlarini tashkil qilish orqali, bunday munosabatlar mulkdorni o'zgartirmaydi.

Yuqoridagi funktsiya uchta darajadn iborat bo'lib, ular, pul fondlarini shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishdan iborat.

Uy xo'jaliklari moliyasini ikkala funktsiyasi ham bir vaqtda harakat qiladi va bir – birini to'ldirib boradi.

Shuningdek uy xo'jaliklari moliyasining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish funktsiyalari ham mavjudligi ko'rsatilayotgan bo'lib ular:

1. Uy xo'jaligining ishlab chiqarish funktsiyasi o'z doirasiga bir qator funktsiyalarni jamlaydi:

- Shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritish. Bu funktsiyaga qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishga mo'ljallangan barcha turdagi yer maydonlari kiritiladi. yetishtirilgan mahsulot ichki iste'molni qondirish va tashqi realizatsiya uchun xizmat qiladi. Xozirgi bozor iqtisodiyotining rivojlanish bosqichida aholining hayotiy ta'minotida shaxsiy tomorqa daromadi muhim o'rin egallamoqda. Shaxsiy tomorqa xo'jaligini rivojlanishi nafaqat mahalliy aholini, balkim mamlakatni boshqa hududlarini hamda qo'shni davlatlarni sabzavot va mevalarga bo'lgan extiyojini qondirish orqali, moliyaviy darajasi past bo'lgan

qishloq xo'jaligiga maxsuslashgan hududlarga tashqi manbalardan moliyaviy resurslar oqimini kelishiga imkoniyat yaratmoqda.

- alohida mehnat va tadbirkorlik faoliyati. Bu faoliyat orqali aholining kundalik extiyoji uchun kerak bo'lgan ishlab chiqarish va xizmatlar amalga oshirilib ular jumlasiga;

- ust-boshlar tikish va poyafzallar tayyorlash;

- uy joylarni qurish va ta'minlashda ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar tayyorlash;

- xunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash va sotish;

- oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash;

- qandolat mahsulotlarini tayyorlash;

- oilaviy korxonalarni tashkil etish va saqlash kabilar kiradi.

Ushbu faoliyat turi iqtisodiyotda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

2. Iqtisodiy noishlab chiqarish funktsiyasi jumlasiga:

- ko'chmas mulk va uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan uy jihozlarini, avtomobillarni, garaj, saroy va boshqalarni ijaraga berish;

- qimmatli qog'ozlarni sotib olish va ulardan foydalanish, bankdagi jamg'armalar va moliyaviy operatsiyalar.

Yuqoridagi funktsiyalar uy xo'jaligini aholi bandligiga va oilaviy biznesni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish orqali Raqobat muhitini yaratishga xizmat qilishini ifodalaydi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Z.Yu.Yuldashev va T.S.Malikovlar uy xo'jaliklari moliyasini 6 ta funktsiyasi mavjud bo'lishi lozimligini tavsiflashadi.<sup>7</sup>

Ular jumlasiga:

- taqsimlash;

- takror ishlab chiqarish;

- nazorat;

- tartibga solish (tartiblash);

---

<sup>7</sup> Z.Yu.Yuldashev va T.S.Malikov Moliya: Uy xo'jaliklari moliyasi. T.: Iqtisod-moliya, 2008– 110 bet.

- rag'batlantirish;
- ijtimoiy funktsiyalarni kiritishadi.

Ushbu funktsiyalarni quyidagicha tariflanadi:

- Uy xo'jaliklari moliyasining taqsimlash funktsiyasi taqsimlash jarayonini oxirgi bosqichgacha yetkazib aholi hayotiy mablag'lari fondini shakllantirishni taqazo etadi, insonga takroriy ishlab chiqarish uchun iqtisodiy asos yaratadi;

- Uy xo'jaliklari daromadlari, xarajatlari va jamg'armalarining o'sishi jamiyatdagi takror ishlab chiqarish jarayoni uchun moddiy asos bo'lib xizmat qiladi;

- uy xo'jaliklari iste'molini odatdagi darajasini saqlab turishni, olingan daromadlarni turli fondlarga taqsimlanishi, ularni maqsadli foydalanishini, uy xo'jaliklarini farovonligini qo'llab-quvvatlash va ularni taraqqiy etishi uchun ular byudjetlarining holatlari, ularga tegishli bo'lgan daromadlarning taqsimlanishi daromad manbaalarining dinamikasi ustidan ob'ektiv nazorat o'rnatish, uy xo'jaliklari moliyasining nazorat funktsiyasi orqali namoyon bo'ladi;

- uy xo'jaliklari moliyasining tartibga solish funktsiyasi makroiqtisodiy va mikroiktisodiy nuqtai nazardan namoyon bo'ladi, makroiqtisodiy tartibga solish uy xo'jaligi ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladi;

- uy xo'jaliklari moliyasining rag'batlantiruvchi funktsiyasi aholi real daromadlarining o'sishiga yo'naltirilgan ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishiga va samarali byudjet siyosatiga asoslangan rag'batlantiruvchi moliya mexanizimini yaratish orqali amalga oshiriladi;

- uy xo'jaliklari moliyasining ijtimoiy funktsiyasi unga tegishli bo'lgan yuqoridagi barcha funktsiyalarning taxlilida kuzatiladi.

Biz o'z navbatida mamlakatimiz va rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan uy xo'jaliklari moliyasining mohiyatini ochib beruvchi funktsiyalarni mujassamlashtirgan xolda quyidagi xulosaga kelmoqchimiz.

Uy xo'jaliklari moliyasi ham davlat moliyasi kabi ikkita funktsiyani bajarishi lozim:

1. Taqsimlash.

2. Nazorat.

Taqsimlash funksiyasi o'z navbatida takror ishlab chiqarishga, investitsiya faoliyatiga, ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga, ijtimoiy ta'minotga, uy xo'jaligi a'zolarini moddiy, ijtimoiy-madaniy farovonlik va xizmatlar bilan ta'minlashga hamda rag'batlantirishga sharoit yaratadi.

Nazorat funksiyasi esa bir vaqtning o'zida taribga solish funksiyasini ham bajaradi deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda uy xo'jaliklari moliyasi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u xo'jalik a'zolarining moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirilishi hamda turmush sharoiti yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Biz bu toifaning naqadar murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Demak, u qandaydir bitta ko'rsatkich emas, uy xo'jaligi a'zolari daromadi va turmushining turli qirralarini ifodalovchi ko'rsatkichlar natural va qiymat ko'rinishida ifodalanib, aholi turmush darajasining miqdor va sifat tomonlarini o'zida aks ettiradi.

## **2. Uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning o'ziga xos jihatlari**

Uy xo'jaligi iqtisodiy va moliyaviy qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektdir. Bir vaqtning o'zida, u faoliyati butun uy xo'jaligining jami va uning har bir ishtirokchisining ijtimoiy namoyon bo'lishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi mikrosotsium ham hisoblanadi. Sotsial-iqtisodiy tizimdagi uy xo'jaligining bunday o'rni uning maqsadga yo'naltirilganligi faoliyati va u tomonidan qabul qilinishi lozim bo'lgan qarorlarning o'ziga xosligini belgilab beradi.

Bolalar tarbiyasi, bilimlilik darajasining o'sishi, sog'liqni saqlash masalalari, dam olishni tashkil etish, uy xo'jaligi keksa a'zolari to'g'risida g'amxo'rlik qilish va boshqa ijtimoiy maqsadlar uy xo'jahgida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Aynan ana shular uy xo'jahgi ichida ma'lum bir o'zaro hamkorlikning me'yorlari va qarorlar qabul qilishning ko'zga ko'rinmaydigan



mexanizmlarini (hayotiy tajriba, an`analar, sub`ektiv ravishda ustuvorlik berish, jamoatchilik fikri va shunga o`xshashlarni) shakllantiradi. Amalga oshirilishi uning ishtirokchilari hayotiy faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo`lgan to`lanmagan ishlar salmog`ining ancha kattaligi uy xo`jaligining o`ziga xos bo`lgan xususiyatlaridan biridir. To`langan va to`lanmagan ishlar ko`rinishlari o`rtasidagi nisbat tarixiy jihatdan o`zgarib boradi va u uy xo`jaligining ijtimoiy tarkibi hamda butun jamiyatning ijtimoiy rivojlanish darajasiga bog`liq.

Uy xo`jaligi tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qilinadigan normalar va qoidalar tashqi omillar ta`siri natijasida shakllanadi. Bunday tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy munosabatlarni me`yoriy-huquqiy tartibga solish;
- umumiy iqtisodiy vaziyat;
- tarkibiy o`zgarishlar;
- inflyasion kutilishlar;
- investitsion muhit;
- davlatning ijtimoiy siyosati.

Tashqi omillar moliyaviy qaror qabul qilishda institutsional chegaralarni aniqlab beradi. Bir vaqtning o`zida, iqtisodiy faoliyatning sub`ekti sifatida uy xo`jaliklari maqsad va unga erishish vositalarini tanlashda mustaqil hisoblanadilar va qabul qilingan iqtisodiy va moliyaviy qarorlar uchun mas`uldirlar.

Uy xo`jaligining moliyaviy xatti-harakati quriladigan ichki me`yorlar tizimi quyidagilarga bog`liq:

- ijtimoiy-madaniy muhit, xususan, ijtimoiy holati, savodxonlik darajasi, uy xo`jaligidan tashqaridagi va uning ichidagi ijtimoiy aloqalar, dam olish shakllari va boshqalarga;
- uy xo`jaligi faoliyatining iqtisodiy va huquqiy tavsifnomasi, shu jumladan, iqtisodiy xatti-harakatning tipiga (o`z-o`zini ta`minlash, hayot uchun kurash yoki rivojlanish rejimiga), tadbirkor maqomining yuridik jihatdan muhrlanganligiga va boshqalarga;

- axloqiy prinsiplarga, shaxsiy salohiyatiga-bunga fikr yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, risk tomon qadam tashlashga qodirligi va h.k.lar kiradi.

(569) Uy xo'jaligining moliyaviy qarorini resurs jihatdan ta'minlash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi: dastlabki (boshlang'ich) manbalar, jamg'ariladigan manbalar va joriy manbalar.

Resurslar dastlabki (boshlang'ich) manbalarining tarkibi meros bo'yicha yoki ko'chmas mulk, naqd pullar, moliyaviy aktivlarning hadya etilishi natijasida berilgan boyliklarning turli moddiy shakllaridan iborat. Uy xo'jaliklarining jamg'armalari va investitsion quyilmalari resurslarning jamg'ariladigan manbasini tashkil etadi. Resurlarning joriy manbalariga doimiy tushumlar (mehnat haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar, ijtimoiy transfertlar) va nodoimiy pulli daromadlar (masalan, iste'mol krediti, lotereyadagi yutuqlar) kiradi.

Kerakli fondlarni shakllantirish uchun uy xo'jaligining ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'larining barcha manbalari uy xo'jaligining moliyaviy resurslarini tashkil etadi. Funktsional mo'ljallanganligiga ko'ra uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi mumkin:

- joriy xarajatlar uchun mo'ljallangan pul mablag'lari-oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlarini (poyafzal, ust-bosh) sotib olish xarajatlari, davriy ravishda iste'mol qilinadigan xizmatlarning haqi va h.k.;

- kapital xarajatlar uchun mo'ljallangan pul mablag'lari-uzoq davr foydalanishga mo'ljallangan tovarlar (mebel, uy-joy, transport vositalari) uchun xarajatlar, uy xo'jaligi a'zolari tomonidan iste'mol qilinadigan xizmatlarning (maorif, tibbiy xizmat ko'rsatish, sayyohlik yo'llanmalari) haqini to'lash;

- pul jamg'armalari.

Uy xo'jaliklari ma'lum davrdagi moliyaviy qarorlarining majmui ularning moliyaviy xatti-harakatini belgilab beradi. Moliyaviy qarorlarni qabul qilishda sub'ektiv motivlar, ustuvorliklar va cheklanmalar rolining katta bo'lganligi

uchun bunday xatti-harakat xilma-xildir. Buning ustiga, uy xo'jaliklarining moliyaviy xatti-harakati dinamikali, tez o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Shu munosabat bilan uy xo'jaliklarining moliyaviy qarorlari miqdoriy (570) va sifat pozitsiyalaridan (shu jumladan, marketingli), iqtisodiyot, sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya nuqtai-nazarlaridan tadqiq etiladi. Bu narsa uy xo'jaligining jamg'arma va investitsion salohiyatini o'rganish, uning iste'mol, qarz va kreditga oid xatti-harakatini tahlil qilish uchun zarur. Jahon amaliyotida bunday tadqiqotlar ijtimoiy ustuvorlik, fikr va kutilmalarda sodir bo'layotgan transformatsiyalanishni aniqlash maqsadida doimiy ravishda olib boriladi.

Uy xo'jaligidagi moliyaviy qarorlar, qanday bo'lishidan qat'iy-nazar, baribir ularning pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, uy xo'jaliklarining moliyaviy qarorlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- uy xo'jaligining daromadlarini shakllantirish;
- iste'mol xarajatlarining hajmi va tarkibiy tuzilmasi (uy xo'jaligining iste'mol fondi);
- jamg'ariladigan fondlarni yaratish imkoniyati va zarurligi.

Yuqorida keltirilgan ikkinchi va uchinchi yo'nalishlar, ko'rinib turibdiki, pul fondlaridan foydalanishga doir moliyaviy qarorlarni qamrab oladi. Endi har bir yo'nalishga tegishli bo'lgan uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Yakuniy iste'molning manbai va xarajatlarda byudjet cheklanmalarini aniqlab berganligi uchun uy xo'jaliklarida daromadlarni shakllantirish jarayoni prinsipial jihatdan muhim ahamiyatga ega. Daromadlar qancha katta bo'lsa, uy xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari shuncha yuqori va moliyaviy qarorlar diapazoni shuncha keng bo'ladi. Moliyaviy qarorlar uy xo'jaliklarining aktivlarini hisobga olgan holda kelgusi davr daromadlarining tarkibiy tuzilmasini shakllantirishga ham tegishli bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklarining daromadlarini shakllantirish bo'yicha moliyaviy qarorlar qabul qilish asosida mulkchilik

munosabatlari yotadi. Ishlab chiqarish omillariga nisbatan bo'lgan mulkchilik daromadlarni birlamchi taqsimlanishini aniqlab beradi va uy xo'jaliklari moliyaviy salohiyatining o'sishi uchun iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bir vaqtning o'zida daromadning funksional taqsimlanishi yollanib mehnat qiluvchi shaxs va kapital egasining ijtimoiy maqomi bir xilda identifikatsiya qilingan sharoitdagina uni fuqarolar o'rtasida real taqsimlanishini talab etadi. Chunki zamonaviy iqtisodiy tizimlarning o'ziga xos xususiyati ijtimoiy maqomning qorishib ketganligi bilan xarakterlanadi. Unga ko'ra, yollanma ishchilar qimmatli qog'ozlarning turli ko'rinishlarini egallab, kapitalning egasiga aylanishi, ko'chmas mulkka ega bo'lib, o'zining biznesini tashkil qilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, uy xo'jaliklari darajasida daromadlarni shakllantirish bo'yicha moliyaviy qarorlar quyidagilarga bog'liq:

- mol-mulk va undan foydalanish (buyumlashgan yoki pul shaklida) imkoniyatining mavjudligiga;
- uy xo'jaligi ishtirokchilari ish vaqti fondining taqsimlanishiga-uy xo'jaligi a'zolari ishlovchilarining soni, ularning ish joylari, ish vaqti rejimi va h.k.;
- uy xo'jaligi a'zolarining tashabbuskorligiga, faolligiga va inson kapitalidan foydalanishga;
- uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatadigan tashqi muhitga.

Daromadlarni shakllantirish omillari va baholarning darajasi bu yerda cheklanmalar sifatida amal qiladi, ya'ni iste'mol tanlan-masining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan variantlari majmuini belgilab (aniqlab) beradi. Ana shu nuqtai-nazardan uy xo'jalik-larining iste'mol fondi minimal va ratsional iste'mol byudjetlari yoki yanada detallashtirilgan tarzda quyidagicha klassifikatsiya qilinishi mumkin:

- hayotiy minimum byudjeti;
- minimal iste'mol byudjeti;
- optimal iste'mol byudjeti.

Hayotiy minimum byudjeti o'z ichiga uy xo'jaligi a'zolarining minimal, odatda, fiziologik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan oziq-ovqat va nooziq-

ovqat tovarlari va xizmatlari to'plamini qamrab oluvchi iste'mol savatchasi asosida aniqlanadi.

Minimal iste'mol byudjeti uy xo'jaligi a'zolarining nisbatan kengroq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi va iste'molning tiklanuvchan darajasini ta'minlaydi.

Optimal iste'mol byudjeti esa uy xo'jaligi darajasida (doirasida) inson kapitalini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash va rivojlantirishga moliyaviy imkoniyat yaratadi. Chunki bu byudjet insonning faqat zaruriy ehtiyojlarini emas, balki undan ham yuqoriroq bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Optimal iste'mol byudjetini quyidagi ikki darajadagi byudjetlarga (ajratish) mumkin: o'rtacha darajadagi yetarlilik byudjeti va yuqori darajadagi yetarlilik byudjeti.

Iste'molga xarajatlarning har qanday ko'rinishi va uning umumiy hajmiga oid har qanday moliyaviy qarorlar uy xo'jaliklari ma'lum ko'rinishdagi byudjetlari doirasidagi ratsional tanlashga asoslanadi. Agar uy xo'jaligining daromadi faqat hayotiy minimumni qoplashga yetadigan bo'lsa, u holda moliyaviy qarorlar uy xo'jaligi iste'mol fondini minimallashtirishga va bir vaqtning o'zida daromadlarning yangi manbalarini qidirib topishga hamda hayot kechirishning moslashtirilgan mexanizmlarini (o'z-o'zini ta'minlash, ikkilamchi bandlik, qarindoshlar va davlatning yordami, mayda-chuyda savdo va boshqalar) «qo'llash»ga qaratilgan bo'lishi kerak. Daromadlarning o'sishi bilan iste'molning hajmi oshadi (o'sadi, ortadi) va uning tarkibiy tuzilmasi o'zgaradi. Biroq, bu holda ham iste'molning o'sish sur'atlari daromadning o'sish sur'atlaridan pastligicha qolaverishi mumkin. Bunday qonuniyat iqtisodiy adabiyotda J.M.Keyns tomonidan tashkil etilgan «asosiy psixologik qonun» nomini olgan. Moliyaviy qarorlarda bu uy xo'jaligi iste'mol fondi va jamg'armalar yo'nalishini optimallashtirish tendensiyasi sifatida namoyon bo'ladi<sup>8</sup>.

---

<sup>8</sup> A.V.Vahobov, T.S.Malikov. Moliya. Darslik. T.: Noshir, 2012 yil, 573-bet.

Jamg'ariladigan fondlarni shakllantirish bo'yicha uy xo'jaliklarining moliyaviy qarorlari ishlab chiqib, qabul qilinayotgan paytda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- ega bo'lingan daromad pasaygan paytda joriy iste'molning odatdagi darajasini saqlab turish uchun sug'urta zahiralarini yaratishning zarurligi;
- uzoq muddatga foydalanishga mo'ljallangan qimmatli predmetlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan kapital xarajatlar darajasini oshirish uchun pul zahiralarini yaratish kerakligi;
- pensiya zahiralarining lozimligi;
- uy xo'jaligining daromadlilik darajasini oshirish maqsadida kelgusida investitsiyalashtirish uchun pul fondini vujudga keltirishning zarurligi.

Daromadlar va ustuvor yo'nalishlarni shakllantirish hamda ulardan foydalanishda umumiyqisodiy o'lchamlardan tashqari uy xo'jaligining iste'mol va moliyaviy xatti-harakatida, jamg'ariladigan fondlarni yaratishda ijtimoiy va psixologik jihatlar (aspektlar) muhim rol o'ynaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

- davlat va moliyaviy institutlarga nisbatan bo'lgan ishonch darajasi;
- avvalgi yillardagi moliyaviy xatti-harakat tajribasi va uning subektiv bahosi;
- asosiy moliyaviy instrumentlarni bilish;
- quyilmalarning imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlarga egalik qilish.

Jamg'ariladigan fondlarni shakllantirish bo'yicha uy xo'jaliklari moliyaviy xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari jamg'arma strategiyalarining elementlari va turlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Uy xo'jaligining har qanday jamg'ariladigan strategiyasi mustaqil bo'lgan uch komponentdan tarkib topadi:

- jamg'arish me'yori, ya'ni uy xo'jaligi jami daromadining jamg'arishga yo'naltiriladigan hissasi asosida jamg'arishning amalga oshirilishi;
- risk va daromadlilikning diversifikatsiyalanish o'lchamlarini hisobga olgan holda investitsion instrumentni tanlash;
- pul mablag'larini joylashtirish muddatlari.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning kombinatsiya qilinishi uy xo'jaligining jamg'arish strategiyasini aniqlab beradi. Uning quyidagi ko'rinishlari bo'lishi mumkin:

- «0»li strategiya-jamg'arish amalga oshirilmaydi, barcha daromadlar joriy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltiriladi;
- yuqori risk strategiyasi-quyilmalar faqat yuqori riskli moliyaviy aktivlarga yo'naltiriladi;
- real strategiya-mablag'lar past va bo'lishi mumkin bo'lgan riskli aktivlarga qo'yiladi, risklar diversifikatsiya qilinadi.

Uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga, shuningdek, bank tizimi va moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi, ya'ni tashqi muhit ham keskin ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunda qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar, bank operatsiyalari, pensiya ta'minoti, sug'urta ishi va shu kabilarning huquqiy jihatdan ta'minlanganlik darajasi ham muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi paytda turli moliyaviy instrumentlarning daromadlilikida yaqinlashish tendensiyasi paydo bo'layapti. Bu quyilmalar riskini pasaytirish va moliyaviy aktivlar portfelining barqarorligini oshirish maqsadida uy xo'jaliklari aktivlari portfelini diversifikatsiyalashga asoslangan real jamg'arish strategiyasining shakllanganligida namoyon bo'lmoqda.

### **3. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaligi moliyasini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar**

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitlarida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun alohida hududlar tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlarining turli-tumanligi alohida turmush darajasini oshirish va uy xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa o'z navbatida uy xo'jaliklari moliyasi oldiga yechilishi lozim bo'lgan bir qator muammolarni qo'ymoqda, ular jumlasiga nodavlat korxonalarida ishlovchilarga ish xaqini me'yorlanmaganligi, bozordagi baholarni talab va taklif asosida shakllanishi, fermer xo'jaliklari, kichik biznes

va tadbirkorlikni uy xo'jaliklari byudjetini rivojlanishida asosiy ahamiyatga ega bo'lib borayotganligi, mehnat qilish yoshidagilarni to'liq ish joylari bilan qamrab olinmaganligi bilan izohlanadi.

Byudjet tizimida ayniqsa sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, pullik xizmatlarni rivojlanishi ham o'z navbatida uy xo'jaliklari moliyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqoridagilar o'z navbatida uy xo'jaliklari moliyasini rivojlantirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ularning moliyaviy munosabatlarini takomillashtirish borasida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Binobarin davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi ham, jamiyatda aholining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan qulay ijtimoiy muhit va shart-sharoitlarni yaratishdir. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy siyosat asoslari: iqtisodiy faoliyat erkinligi; aholining mehnat faolligini oshirish; aholining ijtimoiy ximoyalash; aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lib, Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan ustivor vazifalarni bajarishda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish uchun:

- ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish maqsadida foydalanilmayotgan moddiy ishlab chiqarish quvvatlarini, investitsiyalar va moliyaviy resurslarni ishga solish;

- inson resurslaridan foydalanib, xodimlarning malakasi va ta'lim darajasini, mehnat g'ayratini oshirish;

- tabiiy resurslardan tejab-tergab samarali foydalanish;

- ijtimoiy sohani, avvalo ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari ishini rivojlantirish;

- ijtimoiy sohaga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash zarur bo'ladi.

Uy xo'jaliklari moliyasining rivojlanishining asosiy omili bo'lgan aholi pul daromadlari va turmush darajasini oshirish borasida qo'yiladigan ustivor vazifalar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish;



-xususiy sektorning ildam rivojlanishini ta'minlash, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish;

-kichik biznes va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish borasidagi ishni chuqurlashtirish va miqyosini kengaytirish;

-bank va moliya tizimlari islohotlarini chuqurlashtirish;

-uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish;

-fermer xo'jaliklari yetishtiradigan mahsulotlarga davlat buyurtmasini asta-sekinlik bilan qisqartirib borish va xakazo.

Eng muhimi uy xo'jaliklari imkoniyatlarini tartibga solish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mavjud imkoniyatlarni to'la-to'kis ishga solish natijasida uy xo'jaliklari daromadlari oshiriladi.

Aholi real daromadlarini o'sishi, ichki bozorning mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'yinish darajasining yuksalishi, mahalliylashgan ishlab chiqarishlar va tadbirkorlikning, shuningdek aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning iste'mol sektorini nisbatan barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillar hisoblanadi.

Uy xo'jaligi a'zolarining nominal pul daromadlari o'sishiga sabab bo'ladigan asosiy omillar sifatida ish xaqining va ijtimoiy transfertlarning oshishi va aholi qo'shimcha daromad olishi uchun qulay sharoit yaratilishi lozimligini ta'kidlash lozim. Aholining pul daromadlari tarkibida ish xaqining ulushi oshishiga ish xaqi daromadlarining boshqa manbaalarga qaraganda tezroq o'sishi va ijobiy tendentsiyaning davom etayotganligi hisobiga erishilmoqda.

Ish haqining oshishi bir nechta omillar natijasida ruy beradi

-iqtisodiyotda, jumladan xususiy sektorda band bo'lgan aholi sonining oshishi;

-pedagoglar va tibbiyot xodimlari mehnatiga xaq to'lashning takomillashtirilgan tizimning qo'llanilishi natijasida o'qituvchilar va shifokorlarni ish haqining oshishi;

-tovar va xizmatlar ishlab chikarish xajmining ortishi ham shular jumlasidandir.

Uy xo'jaligi azolarining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini o'rta tomonidan kichik va xususiy biznesni rivojlantirish va kichik tadbirkorlik sohasida band aholi sonini ko'payishini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilayotganligi imkoniyat yaratilmoqda.

Kasanachilikning turli shakllarini, jumladan, yirik sanoat korxonalari va uy xizmati o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida ko'plab ish o'rinlari yaratilmoqda va bu o'z navbatida, uy xo'jaligi azolarining tadbirkorlik daromadlarini oshirishga sabab bo'lmoqda.

Uy xo'jaligi moliyaviy faoliyatini rivojlantirishda xizmatlar sohasini rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilma, uy-joy kommunal xo'jaligi ob'ektlari, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, ta'lim tizimi sog'liqni saqlash, transport, aloqa, dam olish muassasalarini shakllantirish va joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish davomida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishini boshqarishda tarmoq va hududiy yondashuvni mushtarak tashkil etish dolzarb bo'lib boradi. Hududiy yondashuv ijtimoiy infratuzilmaning turli ob'ektlarini joylashtirish va o'zaro ta'sirini yaxshilash ularni mahalliy ehtiyojlar, resurslar va sharoitlarni hisobga olgan holda shakllantirish imkonini beradi.

Uy xo'jaligi moliyaviy faoliyatini rivojlantirishda aholi bandligi ham muhim muammo hisoblanadi. Respublikamiz aholisi tabiiy harakatlanish natijasida o'sib bormoqda. Keyingi yillarda tug'ilish tendentsiyasining qisqarishining barqarorligi mavjudligiga qaramasdan, hududlarda tug'ilishlar soni ko'pligicha qolmoqda. Bozor islohotlarining chuqurlashuvi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va undagi tarkibiy o'zgarishlar aholi bandligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uy xo'jaligi moliyaviy faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil borki bu omil uy xo'jaligidagi iste'molidagi yuqori salmoqqa ega bo'lgan oziq-ovqat xarajatlari baholarining o'zgarib turishidir. Ushbu omil

olimlar (biologlar, vrachlar, iqtisodchilar) tomonidan o'rganilib uy xo'jaligining har bir a'zosiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha me'yoriga belgilangan baholarning o'zgarishiga ta'sir etadi. Bu me'yorlarni umumlashgan ro'yxati iqtisodiyot tilida "iste'mol savatchasi" deb yuritiladi. Iste'mol savatchasi 18 ta o'ta zarur oziq-ovqat mahsulotlaridan (chekuvchilarga 19 ta) iborat bo'lib uning oylik va yillik miqdori aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Davlat Statistika Qo'mitasi tomonidan iste'mol savatchasiga kirilgan mahsulotlarga bo'lgan narxni o'zgarishi muttasil ravishda kuzatib boriladi (1-jadval).

1-jadval

### Iste'mol savatchasi tarkibi

| №  | Mahsulot nomi         | O'lchov birligi | Iste'mol miqdori |           |
|----|-----------------------|-----------------|------------------|-----------|
|    |                       |                 | Bir oyda         | Bir yilda |
| 1  | Non, qora             | kg              | 7.70             | 92.4      |
| 2  | Non, oq               | kg              | 7.25             | 86.0      |
| 3  | Gurunch               | kg              | 1.5              | 18.0      |
| 4  | Vermishel             | kg              | 0.6              | 7.2       |
| 5  | Shakar                | kg              | 2.1              | 25.2      |
| 6  | O'simlik moyi         | kg              | 0.85             | 10.2      |
| 7  | Saryog'               | kg              | 0.3              | 3.6       |
| 8  | Mol go'shti           | kg              | 3.5              | 42.0      |
| 9  | Kolbasa (pishirilgan) | kg              | 1.8              | 21.6      |
| 10 | Kolbasa (dudlangan)   | kg              | 1.0              | 12.0      |
| 11 | Sut                   | litr            | 15.5             | 186.0     |
| 12 | Qaymoq                | kg              | 0.35             | 4.2       |
| 13 | Pishloq               | kg              | 0.20             | 2.4       |
| 14 | Kartoshka             | kg              | 12.5             | 150.0     |
| 15 | Karam                 | kg              | 2.5              | 30.0      |
| 16 | Piyoz                 | kg              | 0.85             | 10.2      |
| 17 | Olma                  | kg              | 1.0              | 12.0      |
| 18 | Tuxum                 | dona            | 15.0             | 180.0     |
| 19 | Sigareta              | quti            | 8.0              | 96.0      |

Iste'mol savatchasi tarkibiga kiritilgan tovarlar inson faoliyati uchun hayotiy zaruriyat bo'lganligini hisobga olinib Respublikamiz Prezidenti

mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdanoq ushbu mahsulotlarni bir qismini baholarini davlat tomonidan tartibga solib uy xo'jaligini har bir a'zosiga belgilangan me'yor doirasida berib borilishini ta'minlashni mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan.

Albatta uy xo'jaligi a'zolari oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari kiyim-kechak va turli xil xizmatlar uchun ham xarajatlar qilishadi. Bu esa uy xo'jaligi moliyasining rivojlanishida uning iste'mol xarajatlarini belgilovchi asosiy omil bo'lgan byudjet chegarasini o'rni beqiyosligi bilan izohlanadi. Bozor tizimidagi uy xo'jaligi iste'moli uning byudjeti bilan chegaraladi, chunki taklif etilayotgan tovarlar taqchil emasligi tufayli iste'mol faqat harid qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Biroq bu hamisha uy xo'jaligi byudjetining cheklanganligiga borib taqaladi degan so'z emas. Byudjet chegarasi uy xo'jaligi uchun ob'ektiv chunki u o'z bilganicha pul tushumini oshira olmaydi., sababi bu unga bog'liq emas, aksincha uni iqtisodiy vaziyat belgilaydi. Bu vaziyat uy xo'jaligining xoxishi, erki va irodasidan qat'iy nazar, mavjud va uy xujaligi u bilan hisoblashishga majbur. Uy xo'jaligi qanchalik harakat qilmasin, agar ish o'rinlari yetishmasa yoki u yerdagi mehnat unumdorligi past bo'lsa, yoki davlatning uy xo'jaliklariga ijtimoiy transfertlar berish imkoniyati chegaralangan bo'lsa, baribir, u o'z pul daromadlarini oshira olmaydi, aksincha u o'z jamg'armasidagi pulni iste'molga sarflaydi.

Extiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi umumiqtisodiy ziddiyat uy xo'jaligi extiyoji bilan uning byudjet chegarasiga mos kelmasligida ifoda etiladi. Uy xo'jaligi extiyojlarining o'sishi, uning pul topib o'z byudjetini kengaytirish orqali moliyaviy holatini barqarorlashtirishga undaydi. Byudjet chegarasi doirasida harid fondi shakllanadi va bu turli tovarlarni sotib olish uchun ajratiladi. Ammo, iste'mol haridini faqat pul miqdori emas, balki tovarlar narxi ham chegaralab turadi.

Darhaqiqat narx va byudjet imkoniga qarab uy xo'jaligi nimaga va qancha miqdorda pul sarflashni hal qiladi, ya'ni istemolga tushadigan tovarlar va xizmatlar tarkibini belgilaydi. Bunga kundalik iste'mol tovarlari, uzoq muddat

foydalaniladigan tovarlar, madaniy, maishiy va ijtimoiy xizmatlar kiradi. Iste'mol tanlovi yuz berganida uy xo'jaligi xarajatlarida sub'yektiv ixtiyoriylik paydo bo'ladiki, bu individual didga qarab, qanday xarajat qilishni belgilab beradi. Uy xo'jaligi tanlovining belgilovchi ob'yektiv omillar (daromad va narx) tabiatan ekzogen bo'lsa, uning sub'yektiv moyilligi endogen hisoblanadi. Ular ta'sirida iste'mol etiladigan tovarlar va xizmatlar kombinatsiyasiga asosan xarajatlar tarkibi paydo bo'ladi.

Byudjet chegarasi bir yerda turib qolmaydi, u turli omillar chunonchi, daromad, narx-navoning o'zgarishiga qarab siljib turadi. Byudjet chegarasidagi siljishlar turli holatlar bilan tavsiflanadi:

1. Narxlar daromadga nisbatan tez o'sganida byudjet chegarasi torayadi.
2. Narxlar nisbatan daromad tez o'sganida byudjet chegarasi kengayadi.
3. Narxlar va daromad bir xil o'zgarganida byudjet chegarasi siljishi yuz bermaydi.

Mamlakatimizda bunday holatlar turli davrlarda kuzatilgan:

-1991-1996 yillarda byudjet chegarasi toraygan;

-1996-2000 yillarda unda siljish kuzatilmagan, unda iste'mol tovarlari narxining indeksiga nisbatan daromadlar jadal o'sganligi tufayli 2000-2008 yillarda uning kengayishi kuzatilmoqda.

Bozor baholari hamma uchun umumiy bo'lganligi uchun ular turli guruhga mansub uy xo'jaliklari byudjet chegarasiga bevosita ta'sir etib uni kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas, bu vazifani daromadni o'zgarishi bajaradi. Xullas uy xo'jaligi byudjet chegarasini farqlantiruvchi bosh omil bu uy xo'jaligi a'zolarining daromadlari miqdoridir. Shunga qarab tovar va xizmatlar uchun turli toifadagi uy xo'jaliklari har xil miqdorda pul to'laydilar.

Byudjet chegarasini farqlanishi uy xo'jaliklarining kvintel guruhlarida ham ko'zga tashlanadi. Byudjet chegarasiga xos belgilarni uy xo'jaligi a'zolarining qaerda istiqomat qilishi ham izohlaydi. Daromadlardan tashqari istemol tovarlarining narxlari ham shahar va qishloqlarda, umuman turli hududlarda farqlanadi. Hududiy farqlarni jon boshiga hisoblangan pul daromadlari va

muayyan iste'mol tovarlari, ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari tovarlarining har xil narxda sotilishi yuzaga keltiradi.

Byudjet chegarasining farqlanishi faqat hududlarda emas, balki shahar va qishloq uy xo'jaliklarida ham kuzatiladi. Bu farqlar daromad topish imkoniyatlari va narxlarining shahar va qishloqlarda turlicha bo'lishidan kelib chiqadi.

Uy xo'jaligi byudjet imkoniyatlari ijtimoiy va hududiy jihatdan qanchalik farqlanmasin, baribir, uy xo'jaligi tanlovi muqobil bo'lib, uy xo'jaligi o'z talab ehtiyojlarini qondiruvchi tovar va xizmatlarini harid etishga pul sarflaydi. Uy xo'jaligi tanlovi ob'ektiv tarzda byudjet chegarasida bo'lsada, uy xo'jaligi a'zolari nimani afzal topishiga bog'liqdir. Uy xo'jaligi tanlovi chog'ida quyidagilar hisobga olinadi:

- tovar haridiga pul yetishi;
- qarz bo'lish ehtimoli;
- tovarni saqlash imkoniyati;
- tovardan xozir foydalanish imkoniyati;
- tovarning sog'liq uchun foyda-zarari;
- xarajatlarning tejalish imkoniyati;

Tanlovning bu tamoyillari byudjet imkoniyatlariga qarab, har xil qo'laniladi, ammo bundan qat'iy nazar, hamma yerda xarajatlar iste'molini maksimallashtirilishi ko'zda tutiladi.

Uy xo'jaligi a'zolari har doim tovarlarni necha pul turishi bilan taqqoslaydi, ularning iste'molidan hosil bo'ladigan qoniqish narxga nisbatan yaxshi bo'lishi kerak. Har bir uy xo'jaligi o'z iste'molini oqilona bo'lishiga intilganida, o'z byudjeti doirasida harid etiladigan tovarlar miqdorini kombinatsiyalashtiradi. Albatta uy xo'jaligi o'z puliga qarab shunday tovarlar majmuini tanlab oladiki, ularning jami foydaliligi uning uchun eng yuqori bo'ladi. Bu esa o'z navbatida uy xo'jaligi byudjetini to'g'ri rejalashtirish uy xo'jaligi moliyasini rivojlashiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek uy xo'jaliklari moliyasini rivojlanishida tarixiy qadriyatlarimizni tiklash ham bugungi kunda yuqori samara berayapti. Agar tarixga nazar solsak, kasanachilik azaldan ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan. Do'kondorlar uyda o'tirgan yosh-yalang ayollarga turli matolarni berishib, undan kiyim bosh va boshqa xalq iste'moli mollari tiktirishgan, hamda savdo sotiq bilan shug'ullanishgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2006 yil 5-yanvardagi PF-3706-sonli Farmonini amalga oshirish yuzasidan va ayniqsa qishloq joylaridagi ish bilan band bo'lmagan aholini uyda mahsulotlar ishlab chiqarish. Xizmatlar ko'rsatish ishlarini bajarishga jalb etish uchun ish beruvchilarga real rag'batlar yaratish kasanachilarning qonun xujjatlarida belgilangan ijtimoiy va mehnat kafolatlarini ta'minlash maqsadida Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 11- yanvardagi 4-son Qarori o'z navbatida Respublikamizda minglab ishchi o'rinlarini yaratilishiga va bu orqali uy xo'jaliklari moliyaviy axvolini yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib bugungi kunda Respublikamiz uy xo'jaliklari moliyasini rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- davlat tomonidan ijtimoiy siyosatning ustivor yo'nalishlariga keng yo'l berilishi;
- aholining ijtimoiy muhofazasini mustahkamlanishi;
- aholining birlamchi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bahosini davlat tomonida tartibga solib turilishi;
- ijtimoiy munosabatlarni me'yoriy-xuquqiy tartibga solish;
- umumiy iqtisodiy vaziyatni normal bo'lishi;
- davlatning soliq siyosati optimal bo'lishi ;
- mamlakatda qulay investitsion muhitni mavjud bo'lishi;
- tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab turilishi;
- ijtimoiy-madaniy muhit, xususan ijtimoiy savodxonlikni yuqori bo'lishi;

- tadbirkor maqomini yuridik jihatdan muhrlanganligi;
- ahloqiy printsiplarga, shaxsiy salohiyatga-bunga fikr yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, risk tomon qadam tashlashga qodir bo'lishlik;
- uy xo'jaligining moliyaviy bozorda qatnashish holati;
- ko'chmas mulk va moliyaviy aktivlardan foydalanish darajasiga;
- uy xo'jaligi a'zolarining tashabbuskorligi, faolligiga va inson kapitalidan foydalanish darajasi;
- uy xo'jaligi byudjetini to'g'ri rejalashtirishi;
- uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatadigan tashqi muhitni qulayligi;
- uy xo'jaligi ishtirokchilari ish vaqti fondining taqsimlanishiga uy xo'jaligi ishtirokchilarining soni ularning ish joylari va ish vaqti rejimi;
- ega bo'lingan daromad pasaygan paytda joriy iste'molning odatdagi darajasini saqlab turish uchun sug'urta zahiralarining yaratilishi;
- uy xo'jaligining moliyaviy qarorini resurs jihatidan ta'minlanishi;
- mol-mulk va undan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi ;
- avvalgi yillardagi moliyaviy faoliyat tajribasi;
- o'z tomorqasida va ijaraga olingan yerlarda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bo'yicha tayyorlov idoralari va shu mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar bilan shartnomalarning tuzilishi;
- jamg'armalarni investitsion resurslarga aylantiradigan institutlar va instrumentlarni rivojlanishi ;
- kooperativ obligatsiyalar bozorini shakllanishi va rivojlanishi;
- fermer xo'jaliklari va uy xo'jaliklari sektori doirasidagi hamkorlikdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish;
- uy xo'jaliklari o'rtasida norasmiy kredit munosabatlarini tashkil etish;
- kasanachilikni rivojlanishi va boshqalar.

#### **4. Uy xo'jaligi moliyasiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar**

Mustaqil O'zbekistonimizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishi, xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi bilan bog'liq kator



masalalarni yechish orqali milliy iqtisodiyotimiz yuksalishi mumkin ekanligini tasdiqlamokda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek "Biz tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishar ekanmiz, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish quruq maqsad emas, degan aniq-ravshan xulosaga kelganmiz. Barcha islohotlarning iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat"<sup>9</sup>.

Prezidentimizning bu siyosatini amalga oshirishda uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirayotgan sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, san'at, chakana savdo xizmati, maishiy xizmat, fan, transport, uy joy xo'jaligi, sug'urta, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalari oldiga yangi vazifalar yuklamoqda.

Respublika aholisini turmush darajasini yuksalishi, uni yuqori darajadagi madaniyatli xizmatlar bilan ta'minlanishi, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yechilishi lozim bo'lgan muhim ijtimoiy -iqtisodiy muammolardan biridir.

Xizmat ko'rsatish sohasining ko'p tarmoqliligi o'z navbatida, ulardan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik shakllarini xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Bu sohalarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususiylashtirish va pullik xizmatlarni tibbiyot va maorif tizimiga joriy etilishi ham bozor munosabatlarining keng miqyosli ekanini ifodalaydi.

Aholi turmush darajasi uning daromadlarining oshishi, sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlanishi bilan bir qatorda yetarlicha xizmat ko'rsatish infratuzilmasi bilan ta'minlanishiga ham bog'likdir.

Xizmat ko'rsatish soxalari ishini rivojlantirish aqlan yetuk, sog'lom fikrli, jismonan baquvvat va komil insonlarni tarbiyalashga imkoniyat yaratadi. Ammo bu o'ta dolzarb va fundamental muammoni xal qilish, xizmat ko'rsatish sohasini, ayniqsa sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarida erkin bozor munosabatlari asosida moliyalashtirishni taqozo etmokda.

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995 y., 119-bet.

Iqtisodiyoti rivojlangan G'arb va Osiyo davlatlarining tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aholining yuqori sifatli turmush darajasiga erishishida nafaqat moddiy ishlab chiqarishni rivojlanishi orqali, shu bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sohalari keng miqyosda o'sishiga bog'liq ekan.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni yuqori darajada o'sishiga sharoit yaratish mamlakatimizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning tarixiy rivojiga nazar solsak, bu infratuzilmani dastlabki davrlarida insoniyat taraqqiyotidagi egallagan ulushini nihoyatda oz bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Ammo bozor iqtisodiyotiga o'tish, ishlab chiqarish samaradorligini o'sishi bilan bog'liq muammolarni xal etishga va ijtimoiy mehnat taqsimotida xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yirik tarmoqqa aylanishiga sabab bo'ldi. Masalan, AQShda keyingi 30 yil mobaynida xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari soni 2.5 barobarga ko'payib 60 mln. kishiga yetdi va umumxo'jalik ishida band bo'lganlarning uchdan ikki qismini tashkil etdi. Shu davr ichida ishlab chiqarishdagi ishchilar soni 19 foizga ko'paygan xolos.<sup>10</sup>

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani asosiy ahamiyati - insonni mehnat qobiliyatini rivojlantirish va ishlab chiqarishni o'sishiga ta'sir qilish bilan birga, jamiyatimiz uchun eng zarur bo'lgan har tomonlama yetuk bo'lgan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Xozirda uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tomonidan, uy xo'jaligi a'zolarining salomatligini tiklash, ma'lumot olishi, malakasini oshirishi, madaniy saviyasini mukammallashtirish, shuningdek aqliy va madaniy dam olishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun qulayliklar yaratilmokda. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish har bir insonning shaxsiy qiziqishi bilan chegaralanib qolmay butun jamiyatimizning ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishlariga bog'likdir. Respublikamizda tarixiy - ilmiy me'roslarimiz asosida shakllanayotgan, ma'naviy va madaniy taraqqiyot yo'li - barkamol insonni

---

<sup>10</sup> Uilyam Petron va Styuart Remsi. Amerika iqtisodiyotining asoslari. T.: Sharq, 1995 y.

tarbiyalashga qaratilgan. Ma'naviy barkamollik shaxsni o'zligini jamiyatda ifodalash imkoniyatini ta'riflaydi va ta'limga erishish, ishlash imkoniyatini, madaniy va ijtimoiy, jumladan oilaviy hayot va diniy faoliyatda samarali ishtirok etishiga bog'liq bo'ladi. Ma'naviy barkamollik ta'lim va san'atga davlat sarf xarajatlari hamda ish bilan mashg'ullik sharoitlarini yaratishga bog'likdir. Muayyan darajada moddiy soxani rivojlanishi darajasi bilan ijobiy bog'liq bo'ladi, ammo bu bog'lanish xizmat ko'rsatish infratuzilmasi muassasalarisiz bo'lmaydi.

Uy xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga yaqinlashuvi, ko'p jihatdan uning a'zolarining bo'sh vaqtlari miqdori bilan aniqlanadi. "Umuman insoniyat boyligining o'lchovi bo'lib, ish vaqti emas, balki bo'sh vaqt hisoblanadi." -degan klassik iqtisodchi olimlar fikriga to'la qo'shilamiz.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlanishi mehnat unumdorligini intensiv usulda oshishiga va uy xo'jaligi a'zolarining ishdan bo'sh vaqtlarini ko'payishiga imkoniyatlar yaratadi.

Lekin uy xo'jaligi a'zolari har doim bo'sh vaqtdan maksadga muvofik foydalana olmaydilar, chunki uy xo'jaligini yuritish uchun madaniy va oziq - ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun, o'z-o'ziga xizmat qilish uchun qancha ko'p vaqt sarflansa, insonni madaniy va jismoniy mukammallashuvi uchun bo'sh vaktidan foydalanish imkoniyati kamayadi.

Bo'sh vaqtni ko'payishi va undan samarali foydalanish respublikamizni rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini tezlashtirishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki qaerda inson omili birinchi o'ringa qo'yilsa, o'sha yerda bo'sh vaqtni ko'payishi muhimgina bo'lib qolmay, balki undan aql bilan foydalanish orqali uy ho'jaligi a'zolari farovon yashashlari uchun xarakat qilishlari lozim.

Respublikamizda mustaqillik yillarida uy-joylarni xususiylashtirish, yashash sharoitlarini yangilanishi, maishiy tarmoqlarni kengayishi va boshqa tadbirlar hisobiga uy xo'jaligi a'zolarining bo'sh vaqti ko'paymoqda va undan samarali

foydalanishni yo'lga qo'yish umumdavlat ahamiyatiga molik muammolardan biriga aylanmokda. Mazkur muammolarning yechimi xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojiga bog'liqdir. Undan tashqari shahar aholisi bilan qishloq aholisining farovonlik darajalari orasidagi farqni kamaytirish va turli ijtimoiy guruhlar hayot tarzini yaqinlashishini ta'minlashda ham xizmat ko'rsatish infratuzilmasini o'rni buyukdir.

Yuqori darajada tashkil etilgan xizmat ko'rsatish infratuzilmasi uy xo'jaligi ehtiyojini progressiv tarkibini shakllanishiga va iqtisodiyotini jahon bozoridagi eng yangi o'zgarishlar yo'nalishi bilan muvofiqlashishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish infratuzilmasi xizmatlari bepul, pullik va aralash tartibda amalga oshiriladi. Bepul xizmatga huquq targ'ibot, boshqaruv organlari hamda umumta'lim sohasidagi xizmatlar kiradi.

Pullik xizmatga uy joy va kommunal xizmatlari, maishiy xizmatlar, dam olish uylari, sanatoriyalar, turistik yo'llanmalar xarajatlari, tibbiy xizmatlar, kinoteatr va boshqa tomoshalar, yo'lovchi transportining barcha turlari, aloqa xizmati va sug'urta xizmatlari kiradi.

Aralash xizmatga sog'liqni saqlash, oliy va o'rta maxsus ta'lim xizmati kiradi.

Respublikamizda bozor qonuniyatlarini amal qilishi o'z navbatida uy xo'jaligi moliyasi xarajatlarini ko'p qismini unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ulushiga to'g'ri kelishiga olib kelmoqda.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma sohalari ichida sog'liqni saqlash tizimi davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida alohida o'rin egallaydi, chunki aholi salomatligi har qanday mamlakat milliy boyligining asosidir. Sababi, ijtimoiy taraqqiyotning bosh mezonini va omili ham inson, pirovard maqsadi ham inson. Ziddiyatli masalalarni hal qilish doimo mushkul kechadi. Ijtimoiy sohani birinchi galda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonlarida ayniqsa qiyin bo'ladi. So'nggi 20 yil ichida mazkur muammo jamiki davlatlar hukumati uchun eng dolzarb masaladir. Sababi, bir tomondan, xalq salomatligi bilan bog'liq vaziyatni o'ta markazlashtirilgan ravishda davlat

nazoratiga olish, ikkinchi tomondan, isloh jarayonlarida keng ommaning ishtirokini ta`minlash zarur. Sog`liqni saqlash masalalariga munosabati jihatidan barcha mamlakatlarni shartli ravishda ikki katta guruhga ajratish mumkin. Bunda asosiy mezon sifatida tibbiy xizmatning mohiyati qay tarzda talqin etilishini olamiz.

Birinchi guruhga mansub davlatlarda tibbiy yordamga asosan ijtimoiy yoki umummanfaatidek qaralib, undan hamma barobar foydalanishi mumkin deb hisoblanadi. Ikkinchi guruhga kiruvchi davlatlarda tibbiy xizmatga bozorda sotish va sotib olish mumkin bo`lgan tovar deb qarashadi. Hayotiy tajriba shuni ko`rsatmoqdaki, sog`liqni saqlash sohasiga tor iqtisodiy ma`noda yondashish ijtimoiy hayotda keskin salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Oxir oqibatda sog`liqni saqlash tizimi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va umumiy iqtisodiy masalalarni hal etmog`i lozim. Shuning uchun ham yevropaning bironta ham davlati o`z siyosatida tibbiy xizmat ko`rsatishni tovar sifatida talqin etish kontseptsiyasini yoqlamagan.

Ekologik muhitning global miqyosda yomonlashuvi, xozirgacha ma`lum bo`lmagan yuqumli kasalliklarning paydo bo`lishi va tarkalishi, kambag`allik chegarasidan pastda yashovchi aholi sonining oshib borishi barobarida tibbiy xizmatning qimmatlashuvi kabi omillar har bir jamiyat a`zosini iloji boricha kam moliyaviy sarf-xarajat evaziga yuqori sifatli tibbiy xizmat bilan ta`minlash mexanizmlarini yaratishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda sog`liqni saqlash tizimida olib borilayottan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa sog`liqni saqlash xizmatlarini pullik bo`lishi o`z navbatida bir tomondan uy xo`jaligi a`zolarining o`z salomatliklari to`g`risida ko`proq o`ylashlariga ya`ni kasallikni oldini olishga xarakat qilishlariga sabab bo`lsa, ikkinchi tomondan ilgarilari bepul bo`lgan xizmat turiga endilikda uy xo`jaligi byudjetidan mablag` ajratishga to`g`ri kelmoqda. Lekin respublikamizdagi barcha uy xo`jaliklarining ham layoqati sifatli tibbiy xizmatlarni sotib olish darajasida emas. Ayniqsa shoshilinch tibbiy xizmatga ehtiyoj sezilganda. Ma`lumki, kam daromadli uy xo`jaligi a`zolari qatlami tibbiy xizmatdan

foydalanishga o'ta muhtoj bo'ladi. Chunki noqulay sharoitda yashashi va mehnat qilishi sababli ular turli xastaliklarga ko'p chalinadi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, uy xo'jaligi daromadi va tibbiy xizmatdan foydalanish ehtiyoji o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Shunga ko'ra, bu sohaga sof iqtisodiy munosabat va printsiplarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish xato bo'ladi. Chunki iqtisodiyotning boshqa sohalaridan, masalan, sanoat tarmog'idan farqli o'laroq, sog'liqni saqlash tizimidagi faoliyat zahirida ma'naviy - ahloqiy me'yorlarning ustuvorligi yotadi.

Mamlakatimizda pullik tibbiy xizmatlarni rivojlanishi davolash ishlarini sifatini oshishiga xizmat qilmoqda, lekin bu holat ko'pgina uy xo'jaligi a'zolarining o'z mablag'larini ma'lum qismini o'zining hayotiy zaruriyati uchun muhim boshqa ehtiyojlaridan tejagan holda, tibbiy xizmatlar uchun ajratishga majbur qiluvchi sog'liqni saqlash sohasidagi murakkab vaziyatni vujudga keltirmoqda.

Bizning fikrimizcha, uy xo'jaligini sifatli tibbiy xizmatlarni sotib olish qobiliyatiga ega bo'lmagan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish maqsadida sog'liqni saqlashni rivojlantirishda davlatga muhim rol berilishi lozim va u quyidagi 3 ta asosiy sharoitlar bilan asoslanishi kerak:

- Birinchidan, kambag'allikni qisqartirish va xizmat uchun o'zi haq to'lay olmaydigan uy xo'jaliklarini bepul tibbiy yordam bilan ta'minlashning zaruriyati;
- Ikkinchidan, tibbiy xizmatlarning ba'zi ko'rinishlari ijtimoiy ne'mat hisoblanadi va u tashqi samaraga ega. Masalan, kasallik tarqatuvchilar bilan kurashish, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish va tibbiy bilimlarni tarqatish;
- Uchinchidan, sog'liqni saqlash tizimida tibbiy sug'urtaning bozor mexanizmining kamchiliklaridir.

Shuningdek uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma soxalari ichida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida bozor qonuniyatlarini amal qilishi o'z navbatida uy xo'jaligi xarajatlari ichida ta'lim uchun ham mablag' ajratish majburiyatini vujudga keltiradi. Ta'lim tizimidagi aralash moliyalashtirish o'z navbatida, o'z hisobidan o'qiydigan uy xo'jaligi a'zolarining davlat byudjeti

xisobidan o'qiydiganlarga nisbatan bilim darajalari pastroq ekanligini ko'rsatmokda, bu esa o'z navbatida pullik shartnoma asosida o'qiydiganlarni alohida dasturlar asosida o'qitish lozimligini kun tartibiga qo'ymokda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tgunga qadar shahar transportini tushumlarini o'zini-o'zi qoplamaydigan qismi davlat byudjeti tomonidan qoplanar edi. Hozirda shahar transportidagi xususiylashtirish jarayoni o'z navbatida o'zini-o'zi to'la moliyalashtirishga imkoniyat yaratdi. Bu vaziyat uy xo'jaligini transport xarajatlarini ortib ketishiga sabab bo'ldi.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma soxalari ichida aloqa va internet xizmati juda ham jadallik bilan rivojlanmoqda. To'g'ri bu xizmat turi uy xo'jaligi uchun yangi xarajat turi bo'lsada, lekin tadbirkorlik va oila biznesini rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning maishiy xizmat, madaniyat, san'at, chakana savdo, sug'urta, jismoniy tarbiya va sport kabi soxalari o'z navbatida bozor munosabatlariga moslashib bormokda.

Lekin hozirgi kunda uy joy kommunal xo'jaligi, gaz, elektr energiya va suv ta'minoti kabi davlat mulkchiligidagi xizmat ko'rsatish sohalari oldida jiddiy muammolar vujudga kelmoqda, bu muammolar ko'pgina uy xo'jaliklari ushbu xizmat turlari bo'yicha kreditorlik qarzlarni bir necha yuz ming so'mgacha yetganligidadir. Bizning fikrimizcha ushbu muammolarni hal qilishning yagona yechimi ushbu xizmat turlarini davlat mulkidan chiqarish va xususiylashtirishdir.

### **I bob bo'yicha xulosa**

Mamlakatimiz bozor munosabatlari rivojlanishi yo'lida tobora ildam qadamlar bilan odimlab bormoqda. Bunday sharoitda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish va shu asosda jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda xalq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat mavqei jihatidan alohida o'rin egallaydi. Ana shu juda muhim soha iqtisodiy asoslarining ham nazariy, ham amaliy mohiyati va ahamiyatini

tushunadigan, bu boradagi barcha yangiliklar va tashkiliy o'zgarishlarni his eta oladigan moliyachi menejerlarni tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Hatto moliya vazirlari chiqishi mumkin bo'lgan, bo'lajak iqtisodchi talabalar, avvalosi, uy xo'jaliklari moliyasini chuqur o'rganish orqali yuksak marralarga erishiladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari moliyasi, uy xo'jaliklari moliyasini alohida bo'g'in sifatida ajratish uchun, ishlab chiqarish jarayonini katta qismini qamrab oladigan kapital aylanishi bilan bog'liq bo'ladigan qator omillar shartlarini bajarishi lozim.

Uy xo'jaliklari moliyasini shakllantirishga iqtisodiy jihatdan baho berishda qarindosh urug'lik va oilaviy rishtalarni asosiy omil deb hisobga olishni to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki garchand bir oilaga ikkinchi oila tomonidan moliyaviy resurslar orqali yordam berilgan taqdirda ham bu yordam bergan oila uchun o'zi yaratgan moliyaviy resurslarni ishlatilishi, yordam olgan oila shu yordam orqali daromad olsa faqatgina anashu daromad uy xo'jaligi moliyasi uchun moliyaviy resursni jamg'arilishi hisoblanadi, olingan yordam esa qachondir qaytariladi natijada oilaviy byudjetida balans hosil bo'ladi.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarini rivojlanishi uy xo'jaliklari moliyasini uy ichida va uy xo'jaligidan tashqari mustaqil iqtisodiy sub`ekt sifatida moliyaviy faoliyat ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida ulardagi mavjud bo'lgan moliyaviy munosabatlarni ikki guruxga ichki va tashqi moliyaviy munosabatlarga ajratishni taqazo etmoqda.

Uy xo'jaligi a`zolari extiyojlarini bugun, ertaga va kelajakda ta`minlash maqsadida shakllantiriladigan pul jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklarining ichki moliyaviy munosabatlari deyiladi.

Uy xo'jaligi a`zolarining iqtisodiyotning uy xo'jaligidan tashqaridagi sub`ektlari ya`ni, davlat va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar, jismoniy shaxslar bilan moliyaviy aloqalari uy xo'jaliklarining tashqi moliyaviy



munosabatlarni tashkil etadi, zero bu moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklari moliyasini asosini tashkil etish bilan xususiyatlanadi.

## **II bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasini rivojlantirish masalalari**

### **1. Uy xo'jaligi moliyasi va uning tarkibi**

Ma'lumki davlat byudjeti har bir davlatning asosiy moliyaviy rejasi deb qaraladi. Shunday ekan uy xo'jaliklari moliyasi davlat moliyasining boshlang'ich bo'g'ini sifatida maydonga chiqadi. Sababi mamlakat bo'yicha barcha uy xo'jaliklari a'zolari hamjihatlikda yaratgan yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismi soliqlar sifatida davlat moliyasining daromadlarini asosiy qismini tashkil etsa uning ishlatilishi uy xo'jaliklari a'zolari iste'moli uchun xizmat qiladi.

O'z navbatida uy xo'jaliklari moliyasi ham daromad va xarajatlar qismlaridan iborat bo'lib uy xo'jaligi byudjetida o'z aksini topadi. Uy xo'jaliklari byudjeti moliyaviy resurslar orqali shakllantiriladi. Uy xo'jaliklari daromadlari hisoblangan moliyaviy resurslarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

1. Natura shakldagi daromadlar.
2. Pul shaklidagi daromadlar.

Natura shakldagi daromadlar o'z iqtisodiy mazmuniga ko'ra 2 xil ko'rinishga ega bo'ladi.

- Tovar shakliga ega bo'lmagan o'z tomorqasida yetishtirilgan va fermer xo'jaliklari tomonidan mehnatlari evaziga berilgan uy xo'jaligi iste'moli uchun mo'ljallangan qishloq xo'jalik mahsulotlari.
- Bozorda sotish uchun mo'ljallangan o'z tomorqasida va ijaraga shartnoma asosida olingan yerlarda yetishtirilgan keyinchalik pul shaklini oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari.

Shuningdek, natura shaklidagi daromadlar jumlasiga uy xo'jaliklarida shaxsiy iste'mol uchun boqiladigan chorva xayvonlari, parrandalar shuningdek xunarmandchilik orqali tayyorlangan buyumlarni uy xo'jaligi iste'moliga qoladigan qismini kiritish lozim.

Umuman olganda baʼzi iqtisodiy adabiyotlarda, uy xoʻjaliklari moliyasida natural daromadlarning salmogʻi uncha katta boʻlmagan qismini tashkil etadi deb baholanadi.<sup>11</sup>

Aslida respublikamizni agrar mamlakat ekanligini, qishloq xoʻjaligida fermerlik va tadbirkorlikni rivojlanib borayotganligi, qishloq joylarida har bir oilaga shaxsiy tomorqalarni berilishi qishloq aholisini uy xoʻjaliklarida natural daromadlarni ortishiga imkoniyat yaratmoqda.

Fermer xoʻjaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarini 40-50 foizga bugʻdoy ekilishi, davlat byurtmasidan ortgan bugʻdoyni fermer ixtiyorida qolishi oʻz navbatida xoʻjalik aʼzolarini mehnatga boʻlgan qiziqishlarini orttirib, uy xoʻjaliklari uchun yil davomida extiyojga yarasha bugʻdoy olish imkoniyatini yaratmoqda. Olingan bugʻdoyni qishloq tegirmonlarida unga aylantirilishi ularni unga va un mahsulotlariga boʻlgan extiyojlarini natural xolda qondirmoqda. Shuningdek bugʻdoydan boʻshagan maydonlarga qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ekilishi va bu mahsulotlarga davlat buyurtmasi yoʻqligi yiliga atiga bir marotaba yer soligʻi toʻlanishi isteʼmol uchun kerak boʻlgan oziq-ovqatlarga boʻlgan sarfini 50-70 foizini tashkil etadi.

Pul shakliga aylanadigan natural daromadlar shaharga nisbatan qishloq joylarida koʻp qirraliligi bilan tavsiflanadi. Shahar joylarida asosan xunarmandchilik hisobiga yaratilgan natural daromadlarni bir qismi uy xoʻjaligi uchun ishlatilsa qolgan qismi bozor tovar shaklida sotiladi va pul koʻrinishini oladi. Qishloq joylarida shaxsiy tomorqalarida yetishtirilgan mahsulotni, fermer xoʻjaliklaridan natura shaklida olingan qishloq xoʻjalik mahsulotlarini, uy xoʻjaligida boqilgan chorva xayvonlarini va parrandalarni ulardan olinadigan sut, goʻsht va tuxum mahsulotlarini, ijaraga olingan yerlarda yetishtirilgan qishloq xoʻjalik mahsulotlarini, xunarmandchilik orqali yaratilgan materiallarni uy xoʻjaligi extiyojdan ortiqcha qismi bozor tovar koʻrinishida sotilib pul shakliga aylantiriladi.

---

<sup>11</sup> Z.Yu.Yuldashev va T.S.Malikov Moliya: Uy xoʻjaliklari moliyasi. T.: Iqtisod-moliya, 2008– 53 6.

Uy xo'jaliklarining pul shaklidagi daromadlari bu milliy daromadning bir qismi hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonida yaratiladi va oila a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Pul daromadlari o'z navbatida insonlarni ishlab chiqarish jarayonida sarflangan aqliy va jismoniy qobiliyatlari sarflarini qoplashi lozim. Shunga qaramasdan hozirgi sharoitda milliy daromad resurslarini taqsimlashdagi nomutanosibliklar alohida uy xo'jaliklari qatlamlari uchun yashash sharoitlarini talab darajasida olib borishlari uchun yetarli bo'lmayabdi. Shuning uchun ham davlat byudjeti byudjetdan tashqari fondlar hisobidan uy xo'jaliklari daromadlarini to'ldirib bormoqda.

Uy xo'jaliklari yalpi daromadi o'zida pul fondlarini aks ettirib, uy xo'jaliklari o'z xarajatlarini ta'minlash uchun ega bo'lgan pul mablag'larini ifodalaydi. Uy xo'jaliklarini pul daromadlari quyidagi manbaalar hisobiga shakllanadi:

- uy xo'jaligi a'zolarining mehnat shartnomalari asosida olgan ish haqlari;
- mukofotlar, ish haqiga ustama va qo'shimchalar;
- ishlovchilarga ijtimoiy-madaniy maqsadlarga to'lovlar;
- nafaqalar;
- stipendiyalar;
- tadbirkorlik faoliyatidan foyda shaklidagi daromadlar;
- o'z tomorqalarida, ijaraga olingan yerlarda yetishtirilgan va fermerlar tomonidan mehnat haqiga va mukofot hamda rag'batlantirish evaziga berilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini bozorda tovar shaklida sotishdan olingan pul mablag'lari;
- chorva hayvonlari, parrandalar va ularni mahsulotlarini sotishdan olingan pul mablag'lari;
- dividendlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- tijorat banklariga qo'yilgan pul malag'lari uchun foizlar;
- byudjet transfertlari va boshqalar

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi yuqoridagi manbaalar o'rtasidagi bog'liqliklarni tubdan o'zgartirmoqda. Lekin, mamlakatimiz aholisining ko'pchilik uy xo'jaliklari uchun bugungi kunda ham ish haqi asosiy daromad manbai sifatida saqlanib qolmoqda. Shunday bo'lsada keyingi yillarda uy xo'jaliklari daromadlarining tarkibida uning salmog'ini bir oz pasayishi kuzatilmoqda. Bu mehnat munosabatlari va moliyaviy munosabatlar tizimida sodir bo'lgan sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bir tomondan, qisman ish haqining o'rnini bosuvchi va undan hayot kechirishning yagona manbai sifatidagi yuklamani olib tashlovchi yangi imkoniyati (masalan moliya sohasidagi) va daromadlarning yangi manbaalari (masalan tadbirkorlik faoliyatining kengayishi) paydo bo'ldi.

Lekin shunga qaramasdan, alohida oilaning daromad manbaalarining ahamiyati ularning ijtimoiy tarkibiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Masalan, ba'zi uy xo'jaliklarining daromadlari 100 foiz pul daromadlaridan iborat, ya'ni farzandsiz oila juftliklarini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Shunga qaramay ba'zi oilalar faqat davlat ijtimoiy transfertlari hisobiga kun kechirmoqdalar. Uy xo'jaliklari daromadlari tarkibiga oilaning shaharda yoki qishlog'da yashashi ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shuningdek, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida masalan, neft-gaz sanoati, hissadorlik jamiyatlari va boshqa turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarda ishlovchilarning ish haqlariga nisbatan byudjet sohasi muassasalarida ishlovchilarning ish haqlari ancha past bu esa ish haqining tabaqalanishi kabi o'tkir muammoni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunga qaramasdan respublikamiz Hukumati tomonidan byudjet sohasi xodimlarining mehnatiga haq to'lash isloh qilinmoqda. Bu narsa ushbu sohada yig'ilib qolgan muammolar bilan (mehnatga haq to'lashning xodimlar malakasi va ular ishlarining xaqiqiy natijalari bilan kuchsiz bog'langanligi, markazdan turib byudjet sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshirishning iloji yo'qligi va x.k) bog'liqdir.

Uy xo'jaliklari daromadlarini quyidagi belgilariga ko'ra ajratish mumkin:

1. Daromad manbaalari ahamiyatiga ko'ra:

- ish haqi va qo'shimcha mehnat faoliyatidan daromadlar;
- tadbirkorlik faoliyati va qimmatli qog'ozlardan daromadlar;
- mulkni vaqtinchalik ijaraga berishdan to'lovlar;
- sug'urta qoplamalari;
- mulkni sotishdan daromadlar;
- davlat pul fondlaridan to'lovlar;
- boshqalar.

2. Daromadlarni kelib tushish davriga ko'ra:

- doimiy (mehnatga to'lovlar, ijara haqi va xakazo);
- davrlararo (mualliflik chororarlari, qimmatli qog'ozlardan tushumlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan va xakazo);
- tasodifiy yoki bir martalik (sovg'alar, rag'batlantirish, mulkni sotishdan tushumlar va xakazo).

3. Tushumlarni ishonchliligiga ko'ra:

- kafolatlangan (davlat nafaqasi, davlat zayomidan tushum);
- shartli-kafolatlangan (ish haqi);
- kafolatlanmagan (gonararlar, komission rag'batlantirish).

Respublikamiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarini chuqurlashib borishi o'z navbatida uy xo'jaliklari uchun yangi pul daromadlari manbaalarini shakllanishiga yo'l ochmoqda.

Ular jumlasidan tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar uy xo'jaligi daromadlarining tarkibiy tuzilishida navbatdagi muhim manbaa bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday daromadlarning tarkibiga xususiy biznes yuritish va uy xo'jaligidagi to'plangan mulkning kamayishi bilan bog'liq bo'lmagan holda vujudga keluvchi daromadlarning har qanday shakllari kiradi. Bu daromadlar biznesni tashkil qilingan va tashkil qilinmagan shakllari doirasida vujudga keladi. Ko'p xollarda tadbirkorlik ishlarini tashkil qilishda asosiy manbaa bo'lib tijorat banklarining qasqa va uzoq muddatli hamda mikro kreditlari maydonga chiqadi.

Keyingi yillarda uy xo'jaliklari daromadlari tarkibida mulkdan olinadigan daromadlarning salmog'i ortib bormoqda. Bunday daromadlar uy xo'jaliklarining mulkiga bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy noishlab chiqarish aktivlaridan foydalanish natijasida vujudga keladigan pul daromadlaridan iborat. Bunda moliyaviy aktivlardan olinadigan daromadlar pul mablag'larini bank omonatlariga, qimmatli qog'ozlarga, xorijiy valyutalar bilan operatsiyalarga joylashtirish natijasida vujudga keladi. Nomoliyaviy noishlab chiqarish aktivlardan olinadigan daromadlar uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan uy-joy binolari va yer uchastkalarini sotish yoki ijaraga berish natijasida paydo bo'ladi.

Shunday qilib ko'rinib turibdiki, uy xo'jaliklarining mulkdan olinadigan daromadlari quyidagi ko'rinishda amal qiladi:

- foizlar;
- dividendlar;
- rentalar.

Moliyaviy vositachilik, fond bozori, patenti huquqi bozori, xususiy mulkchilik, shu jumladan yerga bo'lgan xususiy mulkchilik institutlarining rivojlanishi uy xo'jaliklari daromadlarining umumiy summasida mulkdan olinadigan daromadlarning yanada o'sishiga olib kelishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklari o'z daromadlarini o'zlarining ehtiyojlari uchun istemol qilish orqali xarajat qiladilar. Uy xo'jaliklari xarajatlari mamlakat miqyosida muhim o'rin egallaydi. Oila o'z daromadlarini sarflash orqali tovarlar va xizmatlar bozorini shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. O'z jamg'armalarini va qo'yilmalarini realizatsiya qilish orqali fond bozorini kengaytirib, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni kengaytiradi. Shuningdek, uy xo'jaliklari ishlab chiqarish resurslariga, tadbirkorlik va mehnat resurslariga taklif beruvchi sub`ekt sifatida muhim ahamiyatga ega. Oila a`zosi bola tarbiyasi bilan shug'ullanish orqali davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy-madaniy sohani bosh iste'molchisi hisoblanadi.

Uy xo'jaligi a'zosi o'z mablag'larini xarajat qilish orqali jamiyatning turli xil ehtiyojlarini qondiradi. Bu uch xil yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Tovar va xizmatlarni sotib olish uchun pul daromadlarini sarf qilish;
2. Oilaning ayrim a'zolari tomonidan o'z mehnat faoliyatlari hisobiga o'zini-o'zi natural ta'minotini amalga oshirish orqali;
3. Majburiy to'lovlarni amalga oshirish va jamg'arishga yo'naltirilgan pul mablag'lari.

Uy xo'jaliklarini pul xarajatlari – bu, inson hayotini davom ettirish uchun o'zida iste'mol xarajatlarini va bevosita iste'mol bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni aks ettiradigan moddiy va ma'naviy qiymatliklarini sotib olish uchun oilaning alohida a'zolarini ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uy xo'jaligining pul xarajatlarini turli belgilari bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin:

1. Tartiblilik darajasi bo'yicha:
  - doimiy xarajatlar (oziq-ovqat, kommunal xizmatlar va x.k);
  - bir marotabalik xarajatlar (davolanish, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar).
2. Zaruriyat darajasi bo'yicha:
  - birinchi navbatdagi zarur xarajatlar oziq-ovqat va kiyim bosh uchun;
  - davolanish uchun;
  - ikkinchi darajali xoxishga bog'liq xarajatlar (ta'lim olishga, ixtiyoriy sug'urta, avtomobil sotib olish va x.k).
3. Foydalanish maqsadi bo'yicha:
  - iste'mol xarajatlari (tovarlar va xizmatlarga haq to'lash);
  - majburiy to'lovlarni to'lash (solliqlar, ajratmalar);
  - jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha qo'yilmalar;
  - chet el valyutasini sotib olish;
  - aholi qo'lida pulni o'sishi.



Tovarlar va xizmatlar sotib olish bo'yicha iste'mol xarajatlari, barcha pul xarajatlarini to'rt dan uch qismini tashkil etadi. Ular bugungi kunda unchalik yuqori bo'lmagan pul daromadlarining xajmi, oilaviy ehtiyojini qondirilishi, chakana baholar darajasi, hayotni geografik va klimatik shartlari, shuningdek boshqa omillar bilan izohlanadi.

Uy xo'jaliklari xarajatlari tarkibida oziq-ovqat xarajatlari yuqori ulushga ega. Qishloqda uy xo'jaligi oziq-ovqat xarajatlarini uchdan bir qismini natural xo'jalik hisobiga ta'minlashlarini hisobga olsak, shaharda bu ko'rsatkich ancha yuqori.

Hozirgi vaqtga kelib xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanishi o'z navbatida, shahar aholisini kvartira to'lovlari, kommunal xizmatlar, dori-darmon va jamoatchilik transport uchun sarflari ko'payib bomoqda. Shuningdek ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida yangi xizmat turlarini ko'payishi ham oila xarajatida yuqori salmoqqa ega bo'lmoqda.

Uy xo'jaligining son tarkibi ham oxirgi iste'mol xarajatlari tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bir kishidan iborat uy xo'jaligi holati ancha yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lmoqda. Uy xo'jaligi a'zolarini sonini ko'payishi iqtisodiy jihatdan murakkabligini vujudga keltirmoqda. Ularda o'z shaxsiy tomorqalaridan natural mahsulotlar hamda boshqa tushumlarni ulushi ko'payib, oziq-ovqatlarni sotib olish ulushi pasaymoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishni umumiy ulushini kamayishi, ularni tarkibiga sifat jihatdan ta'sir ko'rsatadi, ya'ni mevalar, konditer mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari ulushi kamayib, non va non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot ulushi ko'payadi.

Uy xo'jaliklarini ikkinchi guruh pul xarajatlari – majburiy va ixtiyoriy to'lovlardan iborat bo'lib, majburiy to'lovlarga, soliqlar, yig'imlar, bojlar, ajratmalar harakatidagi qonunchilik asosida turli darajadagi byudjetlarga va byudjetdan tashqari fondlarga jalb etilsa, ixtiyoriy to'lovlarni oilani alohida a'zolari o'z xoxishlari fondlarga a'zo bo'lish orqali amalga oshiradilar.

Uy xo'jaligining umumiy xarajatlarda bu xarajatlarning ulushi unchalik yuqori emas.

Xarajatlarning uchinchi guruhiga uy xo'jaligini jamg'arma va qo'yilmalari kiritiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda uy xo'jaliklarining xarajatlari quyidagilar bo'yicha klassifikatsiya qilinadi:

- davriylik nuqtai nazaridan;
- xarajatlarning turlari bo'yicha;
- xarajatlarning funktsional mo'ljallanganlikka bog'liqligiga ko'ra;
- majburiylik darajasi bo'yicha;
- to'lovlarning avtonomlilik harakteriga ko'ra;
- iste'mol va jamg'arishga yo'naltirilayotgan real pul xarajatlarining turlari bo'yicha.

**Davriylik** nuqtai nazaridan uy xo'jaliklarining xarajatlari quyidagilarga bo'linadi:

- qisqa muddatli xarajatlar;
- o'rta muddatli xarajatlar;
- uzoq muddatli xarajatlar;

Xarajatlarning turlari bo'yicha uy xo'jaliklarining xarajatlari quyidagilardan tarkib topadi:

- joriy xarajatlar;
- kapital xarajatlar;

Uy xo'jaliklarining xarajatlari funktsional mo'ljallanganligiga ko'ra quyidagilardan iborat:

- shaxsiy iste'mol xarajatlari;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- pul to'planmalari va jamg'armalar.

Avtonomlilik harakteriga ko'ra uy xo'jaliklarining xarajatlari ikkiga bo'linadi:

- daromadlarning ko'lamiga bog'liq bo'lmagan va hayotiy minimum darajasiga rasman muvofiq keluvchi avtonom xarajatlar;
- daromadlarning dinamikasiga bog'liq bo'lgan elastik xarajatlar.

Ayrim hollarda uy xo'jaliklari xarajatlarning ana shunday klassifikatsiyalanishi doirasida kam elastik xarajatlar alohida guruhga ajratiladi va uning tarkibiga uy-joy-kommunal xizmatlari va transport chiqimlarini to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiritiladi.

Real pul xarajatlarning turlari bo'yicha ham uy xo'jaliklarining xarajatlari ikki guruhdan tashkil topadi:

- iste'molga yo'naltirilgan xarajatlar;
- jamg'arishga yo'naltirilgan xarajatlar.

Uy xo'jaliklarining iste'molga yo'naltirilgan xarajatlari har tomonidan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga sarf qilinadigan ega bo'lingan daromadning bir qismidan iborat. Iste'mol xarajatlarning ko'lamini quyidagilarga bog'liq:

- ega bo'lingan daromadga;
- baholar darajasiga;
- iste'molchilarning molk-mulkklariga;
- real foiz stavkalariga;
- iste'mol bo'yicha qarzdorlikning miqdoriga;
- iste'molchilarning soliqqa tortilish darajasiga.

Uy xo'jaliklari byudjetlaridagi iste'mol xarajatlari sub`ektiv omillarga ham ta'sirchan bo'lib, ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- iste'mol qilishga bo'lgan intilishning chegarasi;
- baholarning o'zgarishiga nisbatan iste'molchilarning kuzatuvchanligi;
- pul daromadlari;
- soliqlar;
- tovarlarning mavjudligi va boshqalar.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan uy xo'jaliklari byudjetlarining iste'mol xarajatlari ikkita muhim xususiyatga ega:

- birinchidan, iste'mol xarajatlari yalpi mahsulot doirasida aylanishi modelida yalpi talab va yalpi xarajatlarni tashkil qilishning eng katta qismi hisoblanadi;
- ikkinchidan, uy xo'jaliklari byudjetlarining iste'mol xarajatlari qisqa muddatli davrda bandlik va investitsiyalar darajasini tartibga solish orqali ta'sir etish mumkin bo'lgan yalpi talabning nisbatan barqaror tarkib toptiruvchisidir.

Uy xo'jaliklari byudjetlari xarajatlari tarkibi, tarkibiy tuzilmasi va dinamikasini tahlil qilish, odatda, aholining daromadlari va xarajatlari balansi asosida amalga oshiriladi. Bu balansning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin.

Uy xo'jaliklari byudjetlari xarajatlari hisobidan tovarlarni sotib olish va xizmatlarni to'lash (iste'mol xarajatlari) o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- uy-joy va kommunal xizmatlarni, maishiy xizmatlarni, ma'orif tizimi xizmatlarini to'lash;
- dam olish uylari, sanatoriyalar, turistik yo'llanmalar xarajatlari va tibbiy xizmatlarni to'lash;
- kino, teatr va boshqa tomoshalar xarajatlari;
- yo'lovchi transportining barcha turlarini to'lash xarajatlari;
- aloqa xizmatlarini to'lash;
- qolgan boshqa xizmatlarini to'lash.

Majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar uy xo'jaliklari byudjetlari xarajatlarining muhim elementi hisoblanadi. Bu xarajatlar, hozirgi sharoitda, o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, ular quyidagi omillar bilan bog'langan:

- birinchidan, aholi tadbirkorlik tashabbusining kengayishi yakka tartibdagi tadbirkorlarning kengayishi yakka tartibdagi tadbirkorlarning xo'jalik va savdo faoliyatidan olinadigan soliq, boshqa majburiy to'lovlar va yig'implarning ham kengashi bilan kuzatilmoqda;

- ikkinchidan, sug'urta tizimining rivojlanishi, notijoriy sektorning o'sishi (masalan, turli jamoatchilik tashkilotlari, birlashmalari va ittifoqlari), bir tomondan, sug'urta bo'yicha badallarni oshirsa, ikkinchi tomondan, notijoriy tashkilotlarga ajratmalarni ko'paytiradi;
- uchinchidan, iste'mol va ipoteka kreditining rivojlanishi uy xo'jaliklari byudjetlarining xarajatlarida «ssudalarni qaytarish» va «tovar krediti bo'yicha foizlar» moddalarini oshirilishiga olib keladi.

Sug'urta bozorining intensiv rivojlanishi, bank xizmatlari amaliyotida iste'mol krediti va u bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarning kengayishi natijasida kelajakda uy xo'jaliklari byudjetlari xarajatlarining bu yo'nalishlari faqat o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy bozorning rivojlanishi va pensiya tizimining isloh qilinishi uy xo'jaliklari byudjetlarida «pensiya fondiga sug'urta badallari» xarajatlar moddasining ham o'sishiga olib keladi (2-jadval).

2-jadval

### Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi<sup>12</sup>

| Daromadlar                                                                                                                                | Xarajatlar va jamg'armalar                                      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| 1. Mehnatga haq to'lash                                                                                                                   | 1. Tovarlarini sotib olish va xizmatlarni to'lash               |
| 2. Mehnat haqidan boshqa korxona va tashkilotlardan olinadigan ishchilarning daromadlari                                                  | 2. Majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar:                    |
| 3. Dividendlar                                                                                                                            | a) soliqlar va yig'imlar;                                       |
| 4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olinadigan tushumlar                                                                        | b) sug'urta bo'yicha to'lovlar;                                 |
| 5. Pensiya va nafaqalar                                                                                                                   | v) jamoatchilik va kooperativ tashkilotlarga badallar;          |
| 6. Stipendiyalar                                                                                                                          | g) ssudalarni qaytarish;                                        |
| 7. Moliya tizimidan olinadigan tushumlar (sug'urta qoplamalari, omonatlarning foizlari, omonatlarning foizlari, loteriya yutuqlari va b.) | d) loteriya chiptalarini sotib olish;                           |
| 8. Xorijiy valyuta sotishdan kelgan aholining daromadlari                                                                                 | e) tovar krediti uchun foizlar;                                 |
| 9. Boshqa tushumlar                                                                                                                       | yo) pensiya fondlariga sug'urta badallari;                      |
|                                                                                                                                           | 3. Omonatlar va qimmatli qog'ozlardagi jamg'armalarning o'sishi |
|                                                                                                                                           | 4. Uy-joy binolarini sotib olish                                |

<sup>12</sup> A.B.Ваҳобов, Т.С.Маликов. Молия. Дарслик. Т.: Ношир 2012 йил, 572-bet.

|                                                                                                                                                    |                                                                                                          |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| a) kommission magazinlar orqali buyumlarni sotish<br>b) chiqindi ashyo, metallom va boshqalarni sotish<br>10. O'tkazmalar bo'yicha olingan pullar. | 5.Xorijiy valyutani sotib olish bo'yicha aholi xarajatlari<br>6. O'tkazmalar bo'yicha jo'natilgan pullar |
| Jami<br>pul daromadlari                                                                                                                            | Jami<br>pul xarajatlari va jamg'armalar                                                                  |
| Xarajatlarning daromadlardan oshishi                                                                                                               | Daromadlarning xarajatlarning oshishi                                                                    |
| <b>Balans</b>                                                                                                                                      | <b>Balans</b>                                                                                            |

Uy xo'jaliklari byudjetlari xarajatlar qismining majburiy to'lovlarida soliqlar va yig'imlar kattagina xissani tashkil etadi. Uy xo'jaliklari daromadlarining soliqqa tortilishi ular real daromadlarini qisqartiradi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, davlat moliyasining taqsimlash funktsiyasi doirasida jismoniy shaxslarning daromadlari va mulkdan olinadigan soliqlar muhim vazifalarni yechishga xizmat qiladi. Birinchidan, bu soliqlar mamlakat byudjet tizimining turli byudjetlari darajalarida daromadlarning yetarli tushushini ta'minlaydi. Ikkinchidan, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar olingan daromadlardan ratsional foydalanishi rag'batlantirish va ularni shakllantirish yo'llari bilan uy xo'jaliklari byudjetlarining tarkibiy tuzilmasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Uchinchidan, soliqlar vositasida daromadlarning bir qismi jamiyat va uy xo'jaliklarining ijtimoiy muammolarini yechish uchun qayta taqsimlanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq mamlakat fuqarolari daromadlaridan mol-mulkidan (shu jumladan, yer solig'i va yer uchun ijara haqi) soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va yig'imlar (masalan, ma'muriy jarimalar, jismoniy shaxslardan olinadigan xilma-xil mahalliy yig'imlar) va davlat bojlarini to'laydi. Bir vaqtning o'zida, uy xo'jaliklarining real daromadlariga, aholi daromadlari va harajlarining balansida majburiy to'lovlar sifatida hisobga olinmaydigan bilvosita soliqlar ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Chunki bu soliqlar (aktsizlar, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona bojlari va boshqalar) tovar bahosining tarkibida bo'lib, ular tovar sotib olinayotganda to'lanadi. Tovarlar bahosining

darajasini faqat bilvosita soliqlar oshirib qolmasdan, balki ayrim bevosita soliqlar (yagona ijtimoiy soliq, korxonalarning foydasidan olinadigan soliq, tashkilotlarning mol-mulkidan olinadigan soliq va boshqalar) ham oshiradiki, ular ham qisman yoki to'liq tovarlar bahosi orqali kompensatsiya qilinadi.

Aholi daromadlari va xarajatlari balansi xarajatlar qismining boshqa moddalari («omonatlar va qimmatli qog'ozlardagi jamg'armalarning o'sishi», «xorijiy valyutalarni sotib olish bo'yicha aholi xarajatlari» va boshqalar) jamg'arish jarayoni doirasida uy xo'jaliklarining moliyaviy munosabatlarini aks ettiradi.

## **2. Uy xo'jaliklarida jamg'armalarni shakllantirish va yo'naltirish masalalari**

Barcha majburiy xarajatlar amalga oshirilganidan, zaruriy tovarlar va xizmatlar sotib olinganidan so'ng qolgan bo'sh pul mablag'lari uy xo'jaliklarining jamg'armalarini tashkil etadi. Jamg'armalar, kechiktirilgan iste'mol demakdir. Uy xo'jaliklari jamg'armalari tashkil topishi jarayonining asosida ehtiyojning amalda mavjud (588) bo'lgan darajasi va ularni qondirishning iloji yo'qligi o'rtasidagi ziddiyat yotadi. Ehtiyojlar darajasini qondirishning tashqi cheklovchisi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish imkoniyatining cheklanganligi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti barqaror rivojlangan mamlakatlarda uy xo'jaliklarining jamg'armalariga ham alohida rol ajratilgan. Chunki iqtisodiy o'sish investitsiyalarning muhim manbai bo'lgan jami jamg'armalarning darajasi bilan uzviy bog'langan. o'z navbatida, jamg'armalarning mavjudligi esa mamlakat boyligining belgilaridan biridir. Jamg'arma munosabatlari sohasida quyidagi ko'ptomonlamali aloqalar, manfaatlar va maqsadlar vujudga keladi va qo'shib ketadi:

- takror ishlab chiqarish aloqalari, manfaatlari va maqsadlari. Bunda jamg'armalar kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida maydonga chiqadi;

- uy xo'jaliklari jamg'armalarining aylanishi va milliy iqtisodiyot moliya-bank sektorining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'langan pul-moliyaviy aloqalar, manfaatlar va maqsadlar;
- aholi turmush darajasining o'sishiga yo'naltirilgan ijtimoiy aloqalar manfaatlar maqsadlar.

Uy xo'jaliklarining jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish ijtimoiy takror ishlab chiqarishning o'lchamlari, muvozanat va taraqqiyotning umumiy makroiqtisodiy nisbatlari bilan belgilanadi. Jamg'armalarning o'sish sur'atlariga aholi nominal va real daromadlarining o'sish sur'atlari, inflyasiya, yakuniy iste'molga mo'ljallangan xarajatlarning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklari jamg'armalarining o'sishi, ulardan oqilona va samarali foydalanish investitsion faollikni oshirish, iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush darajasining o'sishi muammolarini hal etishga yo'naltirilgan davlat makroiqtisodiy va moliya-kredit siyosatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jamg'armalarni quyidagi turli belgilarga ko'ra tasniflash mumkin: jamg'arish jarayonining maqsadlariga ko'ra, (589) sabablari nuqtai nazaridan va jamg'armalarni to'plash shakllari bo'yicha.

Jamg'arish jarayonining maqsadlariga ko'ra jamg'armalarni quyidagilarga ajratish mumkin: joriy jamg'arma fondlari (uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlarni sotib olish), sug'urta jamg'arma fondlari va investitsion jamg'arma fondlari.

Jamg'armalarning joriy fondlari qisqa muddatli xarakterga ega, naqd mablag'larni qo'shib olgan holda, yuqori likvidli aktivlarda jamg'ariladi.

Sug'urta jamg'arma fondlari ko'zda tutilmagan holatlar va qarilik uchun mo'ljallangan jamg'armalardan iborat bo'lib, ular uzoq muddatli hisoblanadi va ularni jamg'arish jarayoni tugamagunga qadar kamroq likvidli bo'lishi mumkin.

Investitsion jamg'arma fondlari iste'mol ehtiyojlari uchun mo'ljallanilmaydi. Ularning bosh maqsadi daromad keltiruvchi aktivlarga investitsiya qilishdan iboratdir.



Sabablari nuqtai nazaridan uy xo'jaliklarining jamg'armalari motivlashtirilgan va motivlashtirilmagan bo'lishi mumkin. Bu tasniflashga muvofiq maqsadli jamg'armalar motivlashtirilgan jamg'armalar sifatida talqin qilinadi. Biroq jamg'armalarning sabablarini hamma vaqt ham aniqlashning iloji bo'lmasligi mumkin. Ular ehtiyojning darajasiga nisbatan qiyoslaganda to'lovga layoqatlilik imkoniyatining oshishi va ishlab chiqarishning imkoniyatlari natijasida vujudga kelishi mumkin. Bunday jamg'armalar motivlashtirilmagan jamg'armalar deyiladi. Agar to'lovga layoqatli talab va ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi tizimli xarakterda bir-biriga mos kelmasa, ular majburiy jamg'armalar nomini olishi mumkin.

Akkumulyatsiya qilish, ya'ni to'plash shakllari bo'yicha jamg'armalarni bog'lanmagan va bog'langan shakllarga ajratish mumkin. Naqd shakldagi uy xo'jaliklari bo'sh pul mablag'ining jamg'arilishi jamg'armalarning bog'lanmagan shakli hisoblanadi. Agar (590) jamg'armalarni akkumulyatsiya qilish moliyaviy bozor instrumentlariga joylashtirish, shu jumladan, bank omonatlari va boshqa investitsion institutlari yordamida amalga oshirilsa, uy xo'jaliklari jamg'armalarining bunday shakli bog'langan jamg'armalar deyiladi. Jamg'armalarning bog'lanmagan shakllari ustuvor tarzda pulli shaklda bo'lsa, ularning bog'langan shakllari turli quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

- mablag'larni ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) joylashtirish (masalan, korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va ishtirok etish salmog'ini sotib olish shaklida, ko'chmas mulk sotib olish va boshqalar);
- mablag'larni ishlab chiqarishga bilvosita joylashtirish. Bunda mablag'larni to'plash (akkumulyatsiya qilish) va joylashtirish bilan ixtisoslashtirilgan moliyaviy institutlar shug'ullanadi. Bunga misol tariqasida davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish, bank depozitlari, investitsion fondlarning hissasini (salmog'ini) sotib olish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi paytda uy xo'jaliklarida mablag'larni jamg'arish jarayoni, ma'lum darajada, ziddiyatli hisoblanadi. Bir tomondan, keyingi yillarda unda ba'zi bir

pozitiv (ijobiy) tendensiyalar ko'zga tashlanayaptiki, xususan, ular quyidagilarda namoyon bo'layapti:

- keyingi yillar davomida uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan moliyaviy aktivlarning absolyut o'sishi bir necha marta oshdi;
- bog'langan jamg'armalar absolyut va nisbiy jihatdan ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;
- mamlakatda tegishli investitsion muhit mavjud bo'lsa, jamg'armalarga ega bo'lgan va ularni investitsiyalarga joylashtirishi mumkin bo'lgan uy xo'jaliklarining guruhlarini shakllandi;
- uy xo'jaliklari jamg'armalarini investitsiyalarga aylantiruvchi moliyaviy vositalar, dastaklar kengaymoqda: ipotekaviy kreditlashtirish rivojlanayapti; investitsion fondlar, nodavlat pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari faol faoliyat ko'rsatayapti;
- tijorat banklari (shu jumladan, «Xalq banki» va boshqa banklar) o'rtasidagi raqobatning kuchayishi aholi mablag'larini jalb (591) qilish shakllari va metodlarining rivojlanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi: taqdim etiladigan xizmatlar doirasi kengaydi, omonatlarning yangi turlari ishlab chiqildi va boshqalar;
- jismoniy shaxslar omonatlarini qisman kompensatsiya qilishni ko'zda tutuvchi shaxsiy omonatlarni majburiy sug'urta qilish tizimining yaratilishi bank tuzilmalariga bo'lgan ishonchning o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va uy xo'jaliklari jamg'armalar bog'langan shakllarining imkoniyatlarini kengaytiradi;
- jamg'arma jarayonlarida foydalaniladigan moliyaviy instrumentlar daromadlilikining bir-biriga yaqinlashuvi yangi moliyaviy piramidalarni yaratish yo'liga to'siq bo'lib xizmat qiladi.

Bir vaqtning o'zida jamg'armalar hamon o'zlarining investitsiya salohiyatini to'liq amalga oshirmayapti va uy xo'jaliklari daromadlarining qo'shimcha manbalariga to'liq aylanmayapti. Buning ustiga, sobiq ittifoq davridan keyingi yillarda uy xo'jaliklari jamg'arma fondlarining o'sishi iste'mol fondi hisobidan, ya'ni daromadlar tarkibiy tuzilmasining sifat jihatidan

o'zgarishi natijasida emas, balki iste'molning iqtisod qilinishi hisobidan amalga oshirilmoqda.

Jamg'arish jarayonining sog'lomlashtirilishi iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishini muvozanatlashtirish va ularning barqarorligini ta'minlash bilan uzviy bog'langan. Bu narsa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va iste'mol, daromadlarni taqsimlash va ulardan foydalanish, moliya pul muomalasi sohalaridagi saqlanib qolgan nomutanosibliklarga barham berilishi taqozo etadi.

Hozirgi sharoitda uy xo'jaliklari jamg'armalari mexanizmini takomillashtirish quyidagi bir necha yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi kerak:

- aholi real daromadlari va sotib olish qobiliyatining o'sishini ta'minlash. Bu narsa uy xo'jaliklari jamg'armalarga nisbatan moyil-ligining o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi;
- mablag'larni investitsion jarayonlarga jalb qilish uchun valyutalarni sotib olishga xarajat qilinadigan jamg'armalarning (592) bog'langan shakllari rolini ko'tarish va moliyaviy aylanmaga «aholi qo'lidagi pullarning o'sishi» moddasi bo'yicha mablag'larni kiritish;
- jamg'armalarni investitsion resurslarga aylantiradigan institutlar va instrumentlarni rivojlantirish. Buning uchun bank va moliya xizmatlarini diversifikatsiya qilish va kengaytirish, eng avvalo, badalli investitsion fondlar va sug'urta kompaniyalari singari jamoa investorlari institutlari rivojlanishini yangi sifat darajaga o'tkazish, korporativ obligatsiyalar bozorini shakllantirish kerak va h.k.;
- yaxlit olgan holda investitsion «iqlim» ni va jamg'armalar bozorining investitsion muhitini yaxshilash. Bu yo'nalish bo'yicha investitsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirishning roli yuqori bo'lmog'i lozim.


### 3. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uy xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlatning aholi turmush darajasini yaxshilash borasidagi siyosati

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda (1-rasm).

1-rasm.

#### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, XQP bo'yicha AQSH dollari hisobida (yil boshiga nisbatan)<sup>13</sup>.



<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. - 2012. 98-bet.

Rasmdan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 2017 dollarni tashkil etdi. O'rtacha oylik nominal ish haqi esa, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2011 yilning yanvar oyida 1162,6 dollarga yetdi.


Keyingi o'n yilda yurtimizda aholi daromadlari hajmi 8,1 barobar ortgan bir paytda, ish haqi, ijtimoiy ko'makka muhtoj toifalarning daromadlari miqdorini jadal oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlari berish hisobidan aholining eng past va eng yuqori daromadga ega bo'lgan guruhlar o'rtasidagi tafovut, boshqacha aytganda, daromadlardagi farq koeffitsienti 21,1 barobardan 8,3 barobarga qisqardi<sup>14</sup>.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya'ni 2011 yilda 1991 yilga nisbatan AQSh dollari qiymatida 2,7 barobar, o'rtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini ta'minladi.

Pul daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'ldi. Bunda aholining turli guruhlar daromadlari darajasidagi tafovutni aks ettiradigan Jini koeffitsienti 1991-2011 yillarda 0,40 dan 0,29 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan davlatlardagi o'rtacha ko'rsatkichga mos keladi (2-rasm).

---

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. - 2012. 99-bet.

**Aholi pul daromadlari differentsiyasi darajasi.**

Aholi farovonligi o'sishining muhim tarkibiy qismi xizmat ko'rsatish va xizmat turlariga nisbatan oshib borayotgan talabning ta'minlanishi bilan bog'liqdir. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi ijrosi davrida – 2007-2011 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol hajmi 1,8 barobar ko'paydi. Shu bilan birga, bu davrda xizmat bozori tarkibini takomillashtirish borasida qabul qilingan izchil chora-tadbirlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bank, moliya va sug'urta xizmatining yangi istiqbolli turlari jadal rivojlanishini ta'minladi va ular ushbu davr mobaynida 3 barobar o'sdi.

Aholi to'lov qobiliyatining ortishi ko'rsatilayotgan pulli xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbatan 1992 yil bilan qiyoslaganda, 2,2 barobar, maishiy xizmatlar bo'yicha esa 8,3 barobar o'sishini taqozo etdi, shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana tovar aylanmasi, birinchi navbatda, nooziq-ovqat mahsulotlari savdosining o'sishi hisobidan 4,3 barobar oshdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Mazkur islohotlar


natijasida 1991-2011 yillar davomida O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari 8,6 barobar oshdi.

Yalpi daromadlar tarkibida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko'rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo'ldi.

Mamlakatimiz xukumati tomonidan aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o'rta sinfni shakllantirish imkonini berdi (3-rasm).

3-rasm.

### Jamiyat tarkibida o'rta qatlamning ulushi.



Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yilda o'rtacha daromadga ega bo'lganlar aholining 18 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda, uy xo'jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko'ra, bu ko'rsatkich 24 foizga yetgani ayon bo'ldi. 2011 yilda esa 62 foiz uy xo'jaliklari o'rtacha darajadan kam bo'lmagan barqaror daromadga ega bo'lgan.

Oilaning yalpi daromadlari oshib borishi bilan bir vaqtda yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratildi.

Agar 1991 yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46-48 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa,

2011 yilda bu ko'rsatkich 75 foizdan oshdi. Shu bilan birga, 2011 yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1991 yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi (3-jadval).

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida aholi yalpi xarajatlarining tarkibi, foizda

| Ko'rsatkichlar                                                                              | 1991 y       | 2001 y       | 2010 y       | 2011 y       |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| <b>1. Jami xarajatlar tarkibi</b>                                                           | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| ulardan:                                                                                    |              |              |              |              |
| iste'mol xarajatlari                                                                        | 81,1         | 84,3         | 78,4         | 78,1         |
| Iste'moldan tashqari xarajatlar (solliqlar, a'zolik badallari va boshqa majburiy to'lovlar) | 7,1          | 6,9          | 6,2          | 6,0          |
| pul omonatlari va jamg'armalar                                                              | 11,8         | 8,8          | 15,4         | 15,9         |
| <b>2. Jami iste'mol xarajatlari</b>                                                         | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| shu jumladan:                                                                               |              |              |              |              |
| oziq-ovqat mahsulotlari uchun                                                               | 58,3         | 59,8         | 49,8         | 49,5         |
| nooziq-ovqat mahsulotlari uchun                                                             | 31,5         | 26,8         | 33,7         | 33,8         |
| xizmatlar uchun to'lovlar                                                                   | 10,2         | 13,4         | 16,5         | 16,7         |

Jadvaldan ko'rinib turganidek, 1991-2011 yillar davomida jami xarajatlar tarkibida iste'mol xarajatlarining ulushi 81,1 foizdan 78,1 foizga, iste'moldan tashqari xarajatlar ulushi 7,1 foizdan 6,0 foizga qisqargan, aksincha, pul omonatlari va jamg'armalar ulushi 11,8 foizdan 15,9 foizga ortgan. Shu bilan birga, oilalarning iste'mol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashtirib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlar uchun xosdir.

Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, 1991-2011 yillarda non va non mahsulotlarining iste'moli kamaygan, aksincha, qolgan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'moli ortgan (4-jadval).



**4-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol qilinishi (aholi jon boshiga, kilogramm hisobida)**

| <b>Ko'rsatkichlar</b>              | <b>Yillar</b> |             |             |             | <b>2011 yilda<br/>1991 yilga<br/>nisbatan<br/>foizda</b> |
|------------------------------------|---------------|-------------|-------------|-------------|----------------------------------------------------------|
|                                    | <b>1991</b>   | <b>2001</b> | <b>2010</b> | <b>2011</b> |                                                          |
| Non va non mahsulotlari            | 170           | 167         | 160         | 158         | 92,9                                                     |
| Go'sht va go'sht mahsulotlari      | 31            | 34          | 38          | 39          | 125,8                                                    |
| Sut mahsulotlari                   | 183           | 162         | 239         | 242         | 132,2                                                    |
| Tuxum (dona)                       | 97            | 47          | 138         | 140         | 144,3                                                    |
| Sabzavot va poliz ekinlari         | 107           | 128         | 238         | 241         | 225,2                                                    |
| Kartoshka                          | 29            | 36          | 45          | 47          | 162,0                                                    |
| O'simlik yog'i va boshqa<br>moylar | 12            | 12          | 13          | 13          | 108,3                                                    |
| Shakar                             | 12            | 16          | 17          | 18          | 150,0                                                    |
| Meva, jumladan, uzum               | 23            | 42          | 83          | 85          | 369,5                                                    |

O'zbekistonda aholi soni 1991-2011 yillar mobaynida 38,2 foiz oshganiga qaramasdan, jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 25,8 foizga ortdi, jumladan, sut va sut mahsulotlari 32,2 foiz, tuxum 44,3 foiz, sabzavot 2,2 barobar, kartoshka 1,6 barobar, meva 3,7 barobar va shakar 1,5 barobar o'sdi. Ayni vaqtda iste'mol tarkibi ancha sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish hisobidan o'zgarmoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni (birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini) iste'mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi o'nlab barobar oshdi.

Yurtimizda oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining ortishi bilan bir qatorda asosiy yengil sanoat mahsulotlarining iste'moli ham ko'payib bormoqda (5-jadval).

## 5-jadval

### Asosiy yengil sanoat mahsulotlarining aholi tomonidan iste'mol qilinishi, aholi jon boshiga (yil boshiga nisbatan)

| Ko'rsatkichlar                                                    | 1991 y | 2001 y | 2010 y | 2011 y |
|-------------------------------------------------------------------|--------|--------|--------|--------|
| Matolar, jami (metr)                                              | 7,1    | 5,6    | 9,7    | 10,0   |
| shu jumladan:                                                     |        |        |        |        |
| Paxta tolasidan tayyorlangan gazlamalar (metr)                    | 2,2    | 2,2    | 2,9    | 3,0    |
| Jun gazlama (metr)                                                | 0,3    | 0,3    | 0,7    | 0,8    |
| Zig'ir tolasidan to'qilgan matolar, shoyi, ipak gazlamalar (metr) | 1,8    | 3,2    | 4,6    | 4,7    |
| Aralash matolar                                                   | 0,7    | -      | 1,5    | 1,5    |
| Ustki kiyimbop trikotaj (dona)                                    | 0,6    | 1,1    | 2,5    | 2,6    |
| Ichki kiyimbop trikotaj (dona)                                    | 0,9    | 1,6    | 3,5    | 3,6    |
| Charm poyafzal (juft)                                             | 1,6    | 3,2    | 3,4    | 3,5    |
| Paypoq mahsulotlari (juft)                                        | 3,7    | 6,0    | 6,7    | 6,7    |

Aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nooziq-ovqat mahsulotlarning katta qismi ilgari respublikamizda ishlab chiqarilmas, balki chetdan keltirilar edi. Jumladan, televizorlar, kir yuvish mashinalari, elektr changyutgichlar, yengil mashinalar 100 foiz, gazmollarning qariyb 40 foizi, barcha turdagi oyoq kiyim va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarning 30 foizi chetdan olinib kelinardi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning ancha faol o'sishi asosan 2000 yildan so'ng, mamlakatimizda ularni ishlab chiqarishni rag'batlantiradigan shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratila boshlanganidan keyin kuzatildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sanoati aholining sifatli mebel , gilam mahsulotlari, yengil avtomobillarga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlay oladi. Yurtimizda televizorlar, konditsionerlar va ekologik xavfsiz muzlatgichlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi. Trikotaj mahsulotlari, oyoq kiyimlar

tayyorlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Agar 2000 yilga qadar, o'tish davrining ob'ektiv shart-sharoitlari tufayli, aholining asosiy nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi va ta'minoti pasaygan bo'lsa, so'nggi o'n yillikda bu boradagi ko'rsatkichlarda barqaror o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Bu jarayonda uy xo'jaliklari eskirgan va noqulay maishiy va elektrotexnika buyumlaridan voz kechib, yangi, zamonaviy, sifat jihatidan eski buyumlardan keskin farq qiladigan mahsulotlarni tez sotib olmoqda.

Qayd etilgan davrda mutlaqo yangi mahsulotlar paydo bo'ldi. Bugun ularni xonadon egalari katta qiziqish bilan sotib olmoqda: raqamli televizor va fotoapparatlar, sun'iy yo'ldosh antennalari va mobil telefonlar, DVD pleyerlar, komp yuter va unga qo'shimcha qurilmalar, noutbuklar va boshqa elektron texnikalar, qurilish materiallarining yangi turlari, qadoqlash buyumlari va boshqa ro'zg'or ashyolari shular jumlasidandir. Shunisi e'tiborliki, xonadonlarning zamonaviy maishiy va elektrotexnika bilan ta'minlanish sur'atlari yurtimizning barcha hududlarida bir maromda, mutanosib tarzda o'sib bormoqda (6-jadval).

**6-jadval**

**Aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanishi,**  
(har 100 xonadonga to'g'ri keladigan tovarlar soni)

| <b>Ko'rsatkichlar</b>                                                         | <b>2001 y</b> | <b>2010 y</b> | <b>2011 y</b> |
|-------------------------------------------------------------------------------|---------------|---------------|---------------|
| Televizorlar                                                                  | 88            | 132           | 133           |
| Muzlatgich va muzxonalar                                                      | 86            | 99            | 101           |
| Konditsionerlar                                                               | 11            | 18,5          | 19,1          |
| Elektro changyutgichlar                                                       | 30            | 37            | 38            |
| Shaxsiy komp yuterlar                                                         | 0,2           | 12            | 14            |
| Fotoapparat va videokameralar                                                 | 21            | 24            | 25            |
| Videomagnitofon, videopleyer va DVD pleyerlar                                 | 31            | 64            | 66            |
| Kir yuvish mashinalari                                                        | 69            | 75            | 76            |
| Mobil aloqa vositalari                                                        | 18            | 145           | 149           |
| O'rtacha har 1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan avtomobillar soni, birlikda | 38,9          | 51,5          | 51,7          |
| Har 100 ta xonadonga to'g'ri keladigan                                        | 20,1          | 27,1          | 27,2          |

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan buyumlar bilan ta'minlanish bo'yicha mamlakatimizda yuksak darajaga erishilgan. Buni har 100 xonadonga 133 ta televizor, 101 ta sovutgich, 66 ta DVD pleyer, 149 ta mobil telefon to'g'ri kelishi tasdiqlaydi.


Aholining xarid qobiliyati, ya'ni uning oylik maosh va pensiya hisobidan eng zarur iste'mol mahsulotlarining sotib olish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarining ta'minlanishi sezilarli darajada yaxshilanib borayotganini aks ettiradi.

Shu o'rinda yurtboshimizning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: "...Agar 1991 yilda eng kam ish haqiga Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga qat'iy muvofiq tarzda hisoblab chiqilgan iste'mol korzinkasi qiymatining faqat 8 foizini tashkil etadigan tovar va xizmatlarni xarid qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich iste'mol korzinkasining 120 foizini tashkil etdi yoki 15 barobar o'sdi, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati esa 9 karra oshdi".<sup>15</sup>

O'rtacha oylik maosh xarid qobiliyatining o'sish dinamikasi, minimal iste'mol savati bilan qiyoslaganda, hozirgi vaqtda 7,2 barobar oshdi (4-rasm).

4-rasm.

**O'rtacha oylik ish haqining xarid qobiliyati (minimal iste'mol savatchasiga nisbatan, marta hisobida).**




<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. - 2012. 102-bet.

Aholining jamg'arma mablag'lari iste'mol byudjetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yurtimizda 1995-2010 yillarda aholi omonatlari hajmi barqaror oshib bordi. Ayniqsa, yuqori o'sish sur'atlari 2000-2010 yillarga to'g'ri keladi, bu davrda mazkur ko'rsatkich 28,6 barobar oshgan (5-rasm).

5-rasm.

#### Aholi jamg'armalarining 1995 yilga nisbatan o'sishi.



Hozirgi vaqtda, so'rov natijalariga ko'ra, mamlakatimizdagi qariyb barcha xonadon sohiblari banklarda o'z jamg'arma mablag'lari – omonatlariga ega.

O'tgan yillar mobaynida Namangan viloyatida olib borilayotgan aholi daromadlarini oshirish siyosati natijasida aholi turli qatlamlarining daromadlari ortib borayotganligi ko'rinadi. Navbatdagi jadval ma'lumotlaridan biz viloyat aholisi daromadlari tarkibi haqidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin (7-jadval).

7-jadval

#### Namangan viloyat aholi daromadlari ko'rsatkichlari

ming so'm

| №  | Ko'rsatkichlar                                    | 2010<br>yil | 2011<br>yil | 2012<br>yil | 2011 yil<br>2010 yilga<br>nisbatan,<br>% | 2012 yil<br>2011 yilga<br>nisbatan,<br>% |
|----|---------------------------------------------------|-------------|-------------|-------------|------------------------------------------|------------------------------------------|
| 1. | Aholining o'rtacha oylik daromadlari, jon boshiga | 543         | 567,6       | 708         | 104,5                                    | 124,7                                    |
| 2. | O'rtacha oylik ish haqi miqdori                   | 244,7       | 377,7       | 514,8       | 154,4                                    | 136,3                                    |
| 3. | O'rtacha pensiya miqdori                          | 101,4       | 138,1       | 165,2       | 136,2                                    | 119,6                                    |
| 4. | Aholi daromadlari                                 |             |             |             |                                          |                                          |

|      | tarkibi, shu jumladan            |      |      |      |   |   |
|------|----------------------------------|------|------|------|---|---|
| 4.1. | Ish haqi, %                      | 30   | 32,2 | 33,6 | X | X |
| 4.2. | Tadbirkorlik faoliyati, %        | 39,1 | 41,9 | 42,8 | X | X |
| 4.3. | Pensiya, nafaqa va spitendiya, % | 20,8 | 19,4 | 18,9 | X | X |
| 4.4. | Natura shaklidagi daromadlar, %  | 7,2  | 4,1  | 2,6  | X | X |
| 4.5. | Boshqalar                        | 2,9  | 2,4  | 2,1  | X | X |

Jadval ma'lumotlariga asosan 2012 yilda aholi daromadlarining aholi jon boshiga hissassi 708 ming so'mni tashkil qilib, oldingi yilga nisbatan 124,7 foizga oshgan. Aholi daromadlari tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2012 yilda ish haqi jami daromadlarning 33,6 foizini, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar 42,8 foizini, pensiya, nafaqa va stipendiyalar 18,9 foizini, natura ko'rinishidagi daromadlari 2,6 foizini va boshqa manbalardan daromadlar 2,1 foizni tashkil qilgan. Yillar bo'yicha solishtirsak, aholining ish haq va tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari ulushi ortib borayotganligini ko'rish mumkin.

Bozor munosabatlari chuqurlashib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanib borgan sayin aholining yalpi xarajatlari tarkibida yangi yo'nalish – tadbirkorlik faoliyati uchun xarajatlar yo'nalishi paydo bo'ldi. Ularning ulushi hozirgi paytda yildan yilga ortib bormoqda. O'z mohiyatiga ko'ra, bu usul uy xo'jaligining asosiy kapital uchun mablag' jamg'arishning samarali shakli bo'lib, xususiy mulk asosida o'z daromadlarini shakllantirish va ko'paytirish imkonini beradi.

## **II bob bo'yicha xulosa .**

Uy xo'jaliklari moliyasining davlat bilan bo'ladigan munosabatlari ikki tomonlama o'zaro manfaatli xususiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Bir tomondan uy xo'jaligi davlatga turli xil majburiy soliqlar, yig'img'lar va ajratmalarni to'lash orqali davlatning markazlashgan byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini shakllantirishda ishtirok etsa, ikkinchi tomondan ushbu

pul fondlarining qayta taqsimlanishi natijasida davlatdan ijtimoiy transfertlar sifatida pul mablag'larini oladi.

Byudjet doirasida uy xo'jaliklarini quyidagi pul fondlari shakllanmoqda:

- tibbiy xizmat, ta'lim olish, dam olish, turli tovarlar sotib olish uchun oilaning har a'zosi uchun foydalanishga mo'ljallangan alohida pul fondlari;

- umumiy foydalanish uchun (avtomobil, televizor, xolodilnik, gilam va xakazo) tovarlar sotib olishga;

- kelajakdagi kapital xarajatlar uchun (zahira fondi) jamg'arma va ta'minot (uy, kvartira, yer uchastkasi, avtomobil sotib olishga hamda tijorat faoliyatini yo'lga qo'yish uchun dastlabki kapitalni shakllantirishga) uchun.

Davlat bozor sharoitida uy xo'jaliklari byudjeti xajmiga, pul va moddiy mablag'larni doiraviy aylantirishga o'z ta'sirini o'tkazish orqali kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir quyidagilarda o'z aksini topadi:

- soliq tizimi orqali – uy xo'jaliklari soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy ajratmalar to'laydi;

- davlat sektori xodimlariga ish xaqi to'lanadi;

- davlat tomonidan turli xildagi moddiy farovonlik va xizmatlar amalga oshiriladi;

- davlat tomonidan narxlashtirish orqali baholarni tartibga solish va boshqalar.

Uy xo'jaliklari moliyasiga davlat moliya tizimining bir unsuri sifatida baho berish mumkin bo'ladi. Moliyaviy soxaning boshqa ishtirokchilariga qaraganda uy xo'jaliklari moliyasiga davlat tomonidan kam ta'sir o'tkaziladi. Masalan turli xil maqsadli markazlashgan pul fondlari va davlat byudjetining shakllanishi va ishlatilishi davlat tomonidan qattiq nazorat ostiga olinadi.

Biz o'z navbatida mamlakatimiz va rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan uy xo'jaliklari moliyasining mohiyatini ochib beruvchi funktsiyalarni mujassamlashtirgan xolda quyidagi xulosaga kelmoqchimiz.

Uy xo'jaliklari moliyasi ham davlat moliyasi kabi ikkita funktsiyani bajarishi lozim: taqsimlash va nazorat.

Taqsimlash funktsiyasi o'z navbatida takror ishlab chiqarishga, investitsiya faoliyatiga, ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga, ijtimoiy ta'minotga, uy xo'jaligi a'zolarini moddiy, ijtimoiy-madaniy farovonlik va xizmatlar bilan ta'minlashga hamda rag'batlantirishga sharoit yaratadi.

Nazorat funktsiyasi esa bir vaqtning o'zida tartibga solish funktsiyasini ham bajaradi deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda uy xo'jaliklari moliyasi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u xo'jalik a'zolarining moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirilishi hamda turmush sharoiti yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Biz bu toifaning naqadar murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Demak, u qandaydir bitta ko'rsatkich emas, uy xo'jaligi a'zolari daromadi va turmushining turli qirralarini ifodalovchi ko'rsatkichlar natural va qiymat ko'rinishida ifodalanib, aholi turmush darajasining miqdor va sifat tomonlarini o'zida aks ettiradi.




### **III bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida uy xo'jaliklari moliyasini takomillashtirish yo'nalishlari**

#### **1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash**

Bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad – aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Ayniqsa, chuqurlashgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida aholi bandligini ta'minlash masalasi yanada dolzarb tus oldi.

6 –rasm.



2009-2012 yilga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi haqida gapirganda, ularning avvalo eng muhim masalalarga – yangi ish o'rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirishga yo'naltirilganligini ta'kidlash lozim.

Eng muhimi, jahonda ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirida dunyo bo'yicha 56 mln. kishidan ortiq ishsizlar armiyasi vujudga kelgan bir sharoitda O'zbekistonda yuz minglab yangidan-yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda. Buning yana bir ahamiyatli tomoni, yangi ish o'rinlarini yaratishning o'ziga xos mexanizmlarining tarkib topgani va uning bir qator yo'nalishlar bo'yicha izchil amal qilib kelayotganligidir (6-rasm).

Sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni hamda pudrat shartnomasi asosidagi uy mehnatini rag'batlantirish aholi bandligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bandlik darajasini oshirishga qaratilgan bunday chora-tadbirlar inqiroz sharoitida aholini ishonchli himoya qilish, uning daromadi va moddiy farovonligini oshirish imkonini ta'minladi.

Prezidentimiz qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zahirida juda ulkan hajmdagi ishlar mujassam ekanini, u o'n minglab yangi ish o'rinlarini yaratish, ana shu keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida mamlakatimiz aholisining faol ishtirokini ta'minlash imkonini berishini ko'rsatib o'tdi.

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi.

Bunday sharoitda aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng


imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Aholi turmush darajasiga uning pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi hamda ular o'rtasidagi nisbat ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Umumiy holda aholi pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar, majburiy to'lov va badallar, omonatlar, qimmatli qog'ozlar, qat'iy valyuta xarid qilish va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish jarayoni aholi hayot faoliyati uchun sharoitlar yaratadi. Bu sharoitlar «turmush sifati» tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga qulayliklar yaratish jarayonida xonadonlarni gazlashtirish va aholi uchun yetkazib beriladigan tabiiy gaz narxini belgilash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizga yetkazib berilayotgan tabiiy gaz qo'shni davlatlarga nisbatan arzon narxlarda yetkazib beriladi. Masalan, aholiga 1 ming m<sup>3</sup> hajmdagi tabiiy gazni sotish uchun Qirg'izistonda 309 dollar, Tojikistonda 303,5 dollar, Qozog'istonda 100-140 dollar, O'zbekistonda esa 30 dollar narx belgilangan. Turmush sifati ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi (7-rasm).

7-rasm.



Shuningdek, mamlakatimizda mustaqillikka erishilgach aholi uy-joy va xonadonlarini gazlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu borada shahar va qishloqlarni gaz bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtasida tafovutni keskin qisqartirishga ahamiyat berilmoqda.

Buning natijasida 2013 yil 1 yanvar holatiga respublikamizdagi xonadonlarning gaz bilan ta'minlanganlik darajasi shahar joylarida 88,9 foizni, qishloq joylarida esa 81,7 foizni tashkil etdi. Shu kunga qadar jami gazlashtirilgan xonadonlar soni 5162,6 mingtani tashkil etib, shundan 2419,8 mingta xonadon shaharda, 1850,8 mingta xonadon qishloqda joylashgan.

Aholining iste'mol buyumlari bilan ta'minlanganlik va real daromadlari hajmining o'sishini ular jamg'armalari, xususan moliyaviy muassasalardagi omonatlari miqdorining oshishi orqali ham kuzatish mumkin.

## **2. Uy xo'jaligi moliyasini mustahkamlashda davlat rolining kuchayishi**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga, jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy arxitektura va dizayn asosida barpo etiladigan, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tizimlariga ega bo'lgan shinam uy-joylar barpo etishga, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisining 14,76 mln. nafari yoki 48,4 foiz qismi qishloqda, 15,67 mln. nafari yoki 51,6 foiz qismi shaharda istiqomat qiladi. Shunday ekan, qishloqda yashayotgan aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish millionlab vatandoshlarimizning farovonligini yuksaltirishga, ularda ertangi kunga bo'lgan ishonch va hayotdan qoniqish hislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy qishloq avvalom bor arxitektura va me'moriy rejalashtirish talablariga mos kelishi, Bosh reja asosida tartib bilan qurilishi, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tarmoqlariga (elektr, gaz uzatish tarmoqlari, suv

ta'minoti, yo'llar va boshqa) ega bo'lishi hamda zamonaviy ko'rinishi va shinamligi bilan ajralib turishi lozim.

Aholi yashash joyining bosh rejasi – uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, respublikani va uning mintaqalarini rivojlantirish prognozlarini, tumanni rejalashtirish sxemalari yoki loyihalari asosida ishlab chiqiladi, aholi yashash joylarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini va chegaralarini, ular hududining funksional vazifasini va qurilishni zonalashtirishni, muhandislik, transport ijtimoiy infratuzilmasini kompleks rivojlantirishni, hududlarni o'zlashtirishning navbatma-navbatligini, tarixiy-madaniy meros ob'ektlarini saqlashga, ekologik va sanitariya holatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha qishloq aholi punktlarini zamonaviy arxitektura va me'moriy rejalashtirish loyihasi talablariga to'liq javob beradi deya olmaymiz.

Me'moriy rejalashtirish loyihasi - imoratlar qurishning hajm-makon va arxitektura-badiiy yechimini, binolarning necha qavat bo'lishi va turlarini, imorat qurish va yerdan foydalanishni tartibga solishning qizil chiziqlari, chegaralarini, yerdan foydalanuvchilar hududlarining chegaralarini, ko'chalarning ko'ndalang ko'rinishini belgilab beradi, shuningdek, hududlarni muhandislik yuzasidan tayyorlash tadbirlarini, atrof muhitini muhofaza qilishni nazarda tutadi.

Me'moriy rejalashtirish talablariga ko'ra qishloq aholi punktlari ularda yashayotgan aholi soniga ko'ra 4 toifaga ajratiladi va shunga mos qishloqlarning me'moriy Bosh rejasi ishlab chiqiladi.

Birinchi toifaga aholi soni 100 dan 1000 kishigacha bo'lgan kichik qishloqlar kiritiladi.

Ikkinchi toifaga aholi soni 1000 kishidan 3000 kishigacha bo'lgan o'rtacha qishloqlar kiritiladi.

Uchinchi toifaga aholi soni 3000 kishidan 5000 kishigacha bo'lgan katta qishloqlar kiritiladi.

To'rtinchi toifaga aholi soni 5000 kishidan ortiq bo'lgan yirik qishloqlar kiritiladi.

8-jadval

**O'zbekistonda qishloq aholi punktlarining toifalanishi<sup>16</sup>**

| <b>Aholi punktlarining toifasi</b> | <b>Aholi soni</b>        | <b>Aholi punktlarining soni</b> | <b>Jamiga nisbatan foizda</b> |
|------------------------------------|--------------------------|---------------------------------|-------------------------------|
| Kichik aholi punktlari             | 100 dan 1000 kishigacha  | 5892                            | 49,8                          |
| O'rtacha aholi punktlari           | 1000 dan 3000 kishigacha | 4527                            | 38,3                          |
| Katta aholi punktlari              | 3000 dan 5000 kishigacha | 1026                            | 8,7                           |
| Yirik aholi punktlari              | 5000 kishidan ortiq      | 375                             | 3,2                           |
| <b>Jami:</b>                       |                          | <b>11820</b>                    | <b>100</b>                    |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda jami 11820 ta qishloq aholi punktlari mavjud bo'lib, ularning 5892 tasida (49,8 foizi) aholi soni 100 dan 1000 kishigachani, 4527 tasida (38,3 foizi) 1000 dan 3000 kishigachani, 1026 tasida (8,7 foizi) 3000 dan 5000 kishigachani tashkil etadi va faqat 375 tasida (3,2 foizi) 5000 kishidan ortiq. Zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos kelmaydigan qishloq aholi punktlari yagona rejaning mavjud emasligidan ko'p hollarda tartibsiz va tarqoq holda quriladi. Ayniqsa tumanlarning markazlaridan uzoqda joylashgan qishloq aholi punktlari Bosh reja asosida qurilmagani bois uy-joylar ko'chalarga bo'lingan holda batartib qurilmagan. Bunday qishloqlardagi uy-joylarning tashqi ko'rinishida ham xilma-xillik uchraydi. Shu sababdan ko'rinishi zamonaviy dizayn va shaharsozlik mezonlariga mos kelmaydi hamda kommunikatsiya tarmoqlariga ulash jarayonida noqulayliklar keltirib chiqaradi (8-rasm) .

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. 140 bet.

## Qishloq aholi punktlari bosh reja bilan ta'minlanganligi

8-rasm.

|                                |   |                   |
|--------------------------------|---|-------------------|
| Qishloqlarning umumiy soni     | ⇨ | 11820 ta          |
| Bosh rejasi ishlab chiqilmagan | ⇨ | 7371 ta yoki 62 % |
| Bosh rejasi eskirgan           | ⇨ | 3982 ta yoki 34 % |
| Bosh rejasi yaroqli            | ⇨ | 467 ta yoki 4 %   |

8-rasmida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, respublikamizdagi mavjud jami 11820 ta qishloqlardan 7371 tasining (62 foizi) Bosh rejasi umuman ishlab chiqilmagan, 3982 tasining (34 foizi) Bosh rejasi eskirgan, 467 tasining (4 foizi) Bosh rejasi yaroqli hisoblanadi. Demak, mavjud qishloqlarimizning 96 foizini zamonaviy arxitektura talablari darajasida Bosh reja bilan ta'minlash talab etiladi.

Prezidentimiz I.Karimovning tashabbusi bilan qabul qilingan Davlat dasturlarining amalga oshirilishi qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal ob'ektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-sonli «Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini inobatga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidolari» hamda 2009 yil 7 apreldagi 148-sonli «Qishloq aholi punktlarini bosh rejalar va hududlarni me'moriy rejalashtirishni tashkil etish loyihalari bilan o'z vaqtida ta'minlash, ushbu hududlarni shaharsozlik jihatdan kompleks rivojlantirishni amalga oshirish to'g'risida»gi farmoyishiga muvofiq qishloq aholi punktlarini zamonaviy bosh rejalar bilan ta'minlash va xududlarni me'moriy rejalashtirishni tashkil etish loyihalarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi 68-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga binoan respublikamizdagi 965 ta aholi punktlari shahar posyolkalari toifasiga kiritilib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada kuchaytirish borasida chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, mazkur qarorda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari<sup>17</sup>:

- manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda aholi punktlari toifalarining o'zgartirilishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlashlari;

- shahar posyolkalari toifasiga kiritilgan aholi punktlariga nisbatan qo'yiladigan shaharsozlik talablariga rioya etilishini ta'minlash va muhandislik, transport hamda ijtimoiy infratuzilmalarni oqilona joylashtirish masalalarini hal etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishlari;

- shahar posyolkalari toifasiga kiritilgan aholi punktlari nomlarini «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasi talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishlari belgilab berildi.

Zamonaviy uy-joy loyihalari o'z ichiga zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini, respublika mintaqalarining tabiiy-iqlim sharoitlarini va joyning rel yefini, ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos keladigan, shinam va barcha qulayliklarga ega bo'lgan, kommunikatsiya tizimlariga ulangan, jahon andozalari darajasidagi qishloqlarni barpo etish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi 1046-sonli «Qishloq

---

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. 142 bet.



taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2010-2014 yillar davomida aholi soni 10 ming kishidan ortiq bo'lgan qishloq aholi punktlarini bosh reja loyihalari ishlab chiqish bo'yicha dasturiga jami 62 ta, qishloq aholi punktlarini qurilishi hamda qishloq ho'jaligi korxonalari hududlarini me'moriy rejalashtirish va tashkil qilish bosh reja sxema loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha dasturga aholi soni 5 ming kishidan kam bo'lgan qishloq aholi punktlari bo'yicha 990 ta, aholi soni 5 mingdan 10 ming kishigacha bo'lgan aholi punktlari bo'yicha 353 ta loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Eng avvalo, qishloqda quriladigan zamonaviy uy-joylar va ijtimoiy infratuzilmalarni loyihalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buning uchun loyihalashtirish ishlaridan yaxshi xabardor bo'lgan, barcha moddiy-texnikaviy bazaga hamda yetarli ilmiy salohiyatga ega ixtisoslashgan loyiha-qidiruv institutlarini tashkil etish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvarda qabul qilingan 1049-sonli «MChJ «Qishloqqurilishloyiha» loyiha-qidiruv institutini tashkil qilish to'g'risidagi» qaroriga muvofiq tashkil etilgan «Qishloqqurilishloyiha» loyihalash-qidiruv instituti aynan shu vazifani amalga oshirishga xizmat qiladi. «Qishloqqurilishloyiha» instituti:

- qishloq aholi punktlarini me'moriy rejalashtirish tizimini shakllantirish, rivojlantirishning bosh sxema loyihalarini ishlab chiqish;

- qishloq aholi punktlaridagi turar-joy binolari, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqish ishlarini amalga oshiradi.

«Qishloqqurilishloyiha» instituti hukumatimiz ko'magi bilan qishloqlarni zamonaviy arxitektura talablari asosida me'moriy loyihalashtirish ishlari uchun zarur bo'lgan barcha moddiy-texnikaviy va ilmiy salohiyat bilan ta'minlangan. O'tgan yili «Qishloqqurilishloyiha» instituti tomonidan 31 ta uy-joy loyihalari, 16 ta ijtimoiy soha ob'ektlarning loyihalari va hududlardagi loyiha institutlari tomonidan 20 ta uy-joy loyihalari ishlab chiqilib, qo'llash uchun tavsiya etildi.

Qishloqlarda zamonaviy uy-joylar va infratuzilmalar barpo etish uzoq muddatga mo'ljallangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yirik dastur bo'lib, uni hayotga tatbiq etish uchun katta mablag' talab etiladi. Qishloq qurilishiga sarflanadigan mablag'larning manbalari quyidagilardan iborat:

- qishloq aholisining o'z mablag'lari;
- «Qishloq qurilish bank» ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bankining kredit resurslari;
- davlat byudjetidan shu maqsadlarga ajratilayotgan mablag'lar;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari.

Garchi qishloqlarda zamonaviy uy-joylar barpo etish loyihasining boshlanganiga endigina bir yil to'lganiga qaramay, ushbu maqsadlarga moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 2009 yilning o'zida 2 trillion 600 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi. Eng muhimi, o'tgan yili qishloq joylarda qurilish olib borish uchun uzoq istiqbolga mo'ljallangan, loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli zamonaviy salohiyatga ega bo'lgan baza yaratishga erishildi.

Bu borada moliyalash manbalari va mablag' ajratish mexanizmi belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 martda qabul qilingan PQ-1083 sonli «Qishloq qurilish bank» ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil qilish to'g'risidagi» qaroriga muvofiq qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini sifat jihatdan yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida «Qishloqqurilishbank» tashkil etildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan qishloq joylarda qurilayotgan uy-joylarni imtiyozli foiz stavkalari bilan uzoq muddatli ipoteka kreditlari orqali aholiga topshirish tartibi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Ipoteka – ko'chmas mulkni garovga qo'yish asosida beriladigan uzoq muddatli qarz; ushbu qarzni ta'minlashga xizmat qiluvchi garov.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulk garovi ostida bank tomonidan beriluvchi kredit. Aksariyat hollarda ko'chmas mulkni sotib olish uchun kredit olishda shu ko'chmas mulkning o'zi bankka kreditni qaytarish kafolati sifatida ipoteka (garov) bo'lib hizmat qiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 25 mayda qabul qilingan «Tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun «Qishloq qurilish bank» aktsiyadorlik tijorat banki tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 148-sonli qaroriga binoan yakka tartibda uy-joy qurishga uzoq muddatli ipoteka krediti berishning asosiy shartlari quyidagicha belgilangan<sup>18</sup>:

- ipoteka kreditlari olti oydan iborat imtiyozli davr bilan 15 yilgacha muddatga beriladi;

- ipoteka krediti miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda belgilanadi;

- ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank kredit komissiyasi (qo'mitasi) tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan kundagi qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foizlar undiriladi;

- foizlar qarz oluvchi tomonidan uning olgan ipoteka krediti to'liq to'langungacha kredit bo'yicha qarzlarning amaldagi qoldig'iga hisoblab qo'shiladi.

Ipoteka kreditlari shartnoma asosida hamda qaytarilish, to'liqlik, ta'minlanganlik, maqsadli foydalanish va muddatlilik shartlari bilan quyidagi talablarga javob beruvchi qarz oluvchiga beriladi:

- qishloq joylarda yashaydigan, ipoteka krediti olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga;

---

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. 144 bet.

- oxirgi 12 oy mobaynida doimiy ish joyiga, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligidan yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan doimiy daromadga, shuningdek ipoteka krediti bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarni va asosiy qarzni to'lov jadvaliga muvofiq har oyda to'lash uchun yetarli bo'lgan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromad manbaiga ega bo'lgan shaxslarga;

- barpo etilayotgan uy-joy smeta qiymatining va bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining yoki barpo etilayotgan uy-joy smeta qiymatining kamida 25 foizi summasidagi qurilish materiallari qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan shaxslarga;

- kredit tashkilotlaridan kreditlar bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzi bo'lmagan shaxslarga beriladi.

Qarz oluvchi ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalni to'lash uchun o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Bunda boshlang'ich badal summasining bir qismi yoki uning jami summasi qarz oluvchining ish beruvchisi hisoblanadigan yuridik shaxs tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarz oluvchining nomiga bankda ochilgan omonat qo'yilma hisob raqamiga o'tkazilishi mumkin.

Berilayotgan ipoteka krediti miqdori qarz oluvchining to'lovga qodirligini baholashdan hamda qurilayotgan uy-joyning smeta qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi hamda u eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan, shuningdek qurilayotgan uy-joy smeta qiymatining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Hukumatimiz tomonidan qishloq aholisini zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlashda aholining to'lov qobiliyatini oshirish maqsadida ipoteka kreditini qaytarish muddatining 15 yil etib belgilanishi va Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi darajasida imtiyozli foiz stavkasi joriy etilishiga qo'shimcha ravishda yana bir qator qulayliklar yaratilgan. Jumladan:

- soliqqa tortiladigan ish haqi va boshqa daromadlarning imtiyozli kredit mablag'lari va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan summasi daromad solig'i to'lanishidan ozod qilinadi;

- ish beruvchi tomonidan xodimiga uy-joy sotib olish uchun berilgan mablag'lar daromad solig'i to'lanishidan ozod qilinadi;

- boshlang'ich badal sifatida jamg'ariladigan (namunaviy loyiha 25 foizdan kam bo'lmagan miqdorda) omonat bir yildan kam bo'lmagan muddatda to'plansa Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 150 foizi miqdorida yillik daromad to'lanadi va imtiyozli tarzda navbatsiz kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agar qarz oluvchining ipoteka krediti va kredit bo'yicha foizlarni to'lash uchun mablag'lari yetishmasa, har oydagi to'lovlarda ipoteka krediti yuzasidan birgalikda javob beradigan eri (xotini) hamda uning yaqin qarindoshlari (otanasini, aka-ukalari, opa-singillari, farzandlari) qatnashishiga ham ruxsat berilgan.

Bunday imtiyozlar istiqbolida qishloqlarimizning chiroy o'chib, gullab-yashnashiga va qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga keng imkoniyatlar ochib berishi shubhasiz.

Zamonaviy uy-joylar va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish uchun eng so'ngi fan-texnika yutuqlari hamda texnologiyalarga tayanadigan, mustahkam moddiy-texnikaviy bazaga ega qurilish tashkilotlari talab etiladi. Qishloq aholisiga qurilishni kompleks tarzda tashkillashtirish maqsadida bank tomonidan «Qishloq qurilish invest» ixtisoslashtirilgan sho'ba injiniring kompaniyasi tashkil etilgan. Ixtisoslashtirilgan «Qishloq qurilish invest» kompaniyasi barpo etiladigan uy-joylar, ijtimoiy ahamiyatdagi ob'ektlar va muhandislik infratuzilmalari tarkibi hamda tuzilmasini tanlab olish, qishloq aholi punktlarida yangi uy-joylarni qishloq fuqarolari bilan «tayyor holda topshirish» shartlarida buyurtmachi funktsiyalarini asosida bajarish, pudratchi qurilish tashkilotlari o'rtasida tanlov asosida qurilishni tashkillashtirish, tanlangan yer massivlarida namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joy qurilishini

tashkillashtirish va namunaviy loyiha bo'yicha bino qurilishi yuzasidan nazorat etish masalalari bilan shug'ullanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida Prezidentimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektor tarmoqlarida mahsulotlar tannarxini 20 foizga kamaytirish vazifasi qo'yilgan edi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi o'rtacha 18 foizga, «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarda 20-25 foizga kamaygani ijobiy yutuqlarimiz sirasiga kiradi.

Mahsulot tannarxini pasaytirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar qishloqlarda barpo etilayotgan uy-joylarning loyiha-smeta qiymatini kamaytirishda ham muhim o'rin tutadi. Zero uy-joy qiymatining arzonlashuvi millionlab vatandoshlarimizning manfaatlariga mos bo'lib tushadi.

Namunaviy loyihalarning o'rtacha loyiha qiymatida 23-25 foizi (g'isht, tom yopish materiallari, eshik va romlar) kabi qurilish materiallariga to'g'ri kelmoqda. Uy-joylarning narxlarini optimallashtirish maqsadida qurilayotgan uy-joylarda ishlatiladigan asosiy qurilish materiallari<sup>19</sup>:

- tsement va metall prokatlar to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilardan imtiyozli narxlarda olinmoqda;
- pishgan g'isht va tom yopish materiallari bozor narxlaridan 25-30 foiz arzonlashtirilgan holda bevosita ishlab chiqaruvchilardan olinmoqda.

Qurilish materiallari narxlarini arzonlashtirish maqsadida «Qishloq qurilish invest» kompaniyasi tomonidan yiliga 300 mln. dona pishgan g'isht ishlab chiqaradigan 12 ta, yillik quvvati 1,7 mln. kv. metr tom yopish materiallari hamda 75 ming donadan eshik va rom ishlab chiqaradigan yangi korxonalar tashkil etilmoqda. Bular natijasida:

- uy-joylar tannarxining asossiz o'sishiga yo'l qo'yilmaydi;

---

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma`ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. 146 bet.

- qurilish industriyasining moddiy-texnik bazasi mustaxkamlanadi, raqobatbardosh sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarish yo'lga quyiladi;
- 500 dan ortiq yangi ishchi o'rinlar yaratiladi.

Qurilayotgan uy-joylar va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining tannarxini arzonlashtirish maqsadida yangidan tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari va «Qishloq qurilish invest» kompaniya bilan namunaviy loyihalar asosida uy-joylarning qurilishi uchun «tayyor holda topshirish» shartlarida shartnoma tuzgan barcha pudratchi tashkilotlar soliqlarning barcha turlarini to'lashdan (pensiya jamg'armasidan tashqari) ozod etilgan. Bundan tashqari yangidan tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlariga:

- aylanma mablag'ni shakllantirish va yangi qurilish texnikasi sotib olish uchun imtiyozli kreditlar ajratish;
- chetdan olib kiriladigan qurilish texnikasi uchun bojxona to'lovlari to'lashdan ozod qilish bo'yicha imtiyozlar joriy etilgan.

Hukumatimiz sa'y-harakati bilan ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari va pudratchi tashkilotlarni arzon qurilish materiallari bilan ta'minlovchi 131 ta maxsus firma do'konlarini tashkil etildi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturiga asosan 120 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda.

Yuqorida keltirilgan keng qamrovli tadbirlar natijasida har bir uy-joyning tannarxini 8-10 mln. so'mga kamaytirilishiga erishiladi. Bu esa qishloq aholisini arzon, shinam va barcha qulayliklarga ega zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga binoan «Qishloqqurilishloyiha» loyiha-qidiruv instituti tomonidan xududlarning tabiiy-iqlim sharoitlari va rel yefini, ijtimoiy-demografik xususiyatlarni, mahalliy qurilish va noruda materiallari borligini, mavjud qurilish industrial bazasini jalb etishni hisobga olgan holda qishloq 31 ta uy-joylarining va 16 ta ijtimoiy-

madaniy, sanitariya-maishiy ob`ektlarning yangi namunaviy loyihalari ishlab chiqildi va komissiya tomonidan baholandi.

Alohida e'tiborga molik tomoni shundaki, mazmun-mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan bu kompleks loyihalar yurtimizning barcha hududlarida qishloq ahli va butun jamoatchiligimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda barcha zarur ijtimoiy va kommunikatsiya infratuzilmasiga ega bo'lgan, izchil rivojlanib borayotgan o'ta yirik uy-joy bozori shakllanmoqda.



## **Xulosa**

Mamlakatimiz bozor munosabatlari rivojlanishi yo'lida tobora ildam qadamlar bilan odimlab bormoqda. Bunday sharoitda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish va shu asosda jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda xalq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat mavqei jihatidan alohida o'rin egallaydi. Ana shu juda muhim soha iqtisodiy asoslarining ham nazariy, ham amaliy mohiyati va ahamiyatini tushunadigan, bu boradagi barcha yangiliklar va tashkiliy o'zgarishlarni his eta oladigan moliyachi menejerlarni tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Hatto moliya vazirlari chiqishi mumkin bo'lgan, bo'lajak iqtisodchi talabalar, avvalosi, uy xo'jaliklari moliyasini chuqur o'rganish orqali yuksak marralarga erishiladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari moliyasi, uy xo'jaliklari moliyasini alohida bo'g'in sifatida ajratish uchun, ishlab chiqarish jarayonini katta qismini qamrab oladigan kapital aylanishi bilan bog'liq bo'ladigan qator omillar shartlarini bajarishi lozim.

Uy xo'jaliklari moliyasini shakllantirishga iqtisodiy jihatdan baho berishda qarindosh urug'lik va oilaviy rishtalarni asosiy omil deb hisobga olishni to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki garchand bir oilaga ikkinchi oila tomonidan moliyaviy resurslar orqali yordam berilgan taqdirda ham bu yordam bergan oila uchun o'zi yaratgan moliyaviy resurslarni ishlatilishi, yordam olgan oila shu yordam orqali daromad olsa faqatgina anashu daromad uy xo'jaligi moliyasi uchun moliyaviy resursni jamg'arilishi hisoblanadi, olingan yordam esa qachondir qaytariladi natijada oilaviy byudjetida balans hosil bo'ladi.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarini rivojlanishi uy xo'jaliklari moliyasini uy ichida va uy xo'jaligidan tashqari mustaqil iqtisodiy sub'ekt sifatida moliyaviy faoliyat ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida ulardagi mavjud bo'lgan moliyaviy munosabatlarni ikki guruxga ichki va tashqi moliyaviy munosabatlarga ajratishni taqazo etmoqda.

Uy xo'jaligi a'zolari ehtiyojlarini bugun, ertaga va kelajakda ta'minlash maqsadida shakllantiriladigan pul jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklarining ichki moliyaviy munosabatlari deyiladi.

Uy xo'jaligi a'zolarining iqtisodiyotning uy xo'jaligidan tashqaridagi sub`ektlari ya'ni, davlat va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar, jismoniy shaxslar bilan moliyaviy aloqalari uy xo'jaliklarining tashqi moliyaviy munosabatlarni tashkil etadi, zero bu moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklari moliyasini asosini tashkil etish bilan xususiyatlanadi.

Uy xo'jaliklari moliyasining davlat bilan bo'ladigan munosabatlari ikki tomonlama o'zaro manfaatli xususiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Bir tomondan uy xo'jaligi davlatga turli xil majburiy soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni to'lash orqali davlatning markazlashgan byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini shakllantirishda ishtirok etsa, ikkinchi tomondan ushbu pul fondlarining qayta taqsimlanishi natijasida davlatdan ijtimoiy transfertlar sifatida pul mablag'larini oladi.

Byudjet doirasida uy xo'jaliklarini quyidagi pul fondlari shakllanmoqda:

- tibbiy xizmat, ta'lim olish, dam olish, turli tovarlar sotib olish uchun oilaning har a'zosi uchun foydalanishga mo'ljallangan alohida pul fondlari;
- umumiy foydalanish uchun (avtomobil, televizor, xolodilnik, gilam va xakazo) tovarlar sotib olishga;
- kelajakdagi kapital xarajatlar uchun (zahira fondi) jamg'arma va ta'minot (uy, kvartira, yer uchastkasi, avtomobil sotib olishga hamda tijorat faoliyatini yo'lga qo'yish uchun dastlabki kapitalni shakllantirishga) uchun.

Davlat bozor sharoitida uy xo'jaliklari byudjeti xajmiga, pul va moddiy mablag'larni doiraviy aylantirishga o'z ta'sirini o'tkazish orqali kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir quyidagilarda o'z aksini topadi:

- soliq tizimi orqali – uy xo'jaliklari soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy ajratmalar to'laydi;
- davlat sektori xodimlariga ish xaqi to'lanadi;

- davlat tomonidan turli xildagi moddiy farovonlik va xizmatlar amalga oshiriladi;

- davlat tomonidan narxlashtirish orqali baholarni tartibga solish va boshqalar.

Uy xo'jaliklari moliyasiga davlat moliya tizimining bir unsuri sifatida baho berish mumkin bo'ladi. Moliyaviy soxaning boshqa ishtirokchilariga qaraganda uy xo'jaliklari moliyasiga davlat tomonidan kam ta'sir o'tkaziladi. Masalan turli xil maqsadli markazlashgan pul fondlari va davlat byudjetining shakllanishi va ishlatilishi davlat tomonidan qattiq nazorat ostiga olinadi.

Biz o'z navbatida mamlakatimiz va rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan uy xo'jaliklari moliyasining mohiyatini ochib beruvchi funktsiyalarni mujassamlashtirgan xolda quyidagi xulosaga kelmoqchimiz.

Uy xo'jaliklari moliyasi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u xo'jalik a'zolarining moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirilishi hamda turmush sharoiti yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Biz bu toifaning naqadar murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Demak, u qandaydir bitta ko'rsatkich emas, uy xo'jaligi a'zolari daromadi va turmushining turli qirralarini ifodalovchi ko'rsatkichlar natural va qiymat ko'rinishida ifodalanib, aholi turmush darajasining miqdor va sifat tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Uy xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Xususiy sektorning ildam rivojlanishini ta'minlash, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish.
2. Kichik biznes va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish borasidagi ishni chuqurlashtirish va miqyosini kengaytirish.
3. Bank va moliya tizimlari islohotlarini chuqurlashtirish, uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish orqali uy xo'jaliklari moliyaviy xarajatlarini kamaytirish.

4. Uy xo'jaligining moliyaviy bozorda qatnashish holati, ko'chmas mulk va moliyaviy aktivlardan foydalanishiga ustivor ahamiyat berish.
5. Uy xo'jaligi a'zolarining tashabbuskorligi, faolligiga va inson kapitalidan foydalanish bo'yicha iqtisodiy bilimlarini oshirish va o'quv yurtlarida uy xo'jaligi byudjetini to'g'ri rejalashtirishi bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilish.
6. Ega bo'lingan daromad pasaygan paytda joriy iste'molning odatdagi darajasini saqlab turish uchun sug'urta zahiralarining yaratib borish.
7. Uy xo'jaligining moliyaviy qarorini resurs jihatidan ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratish.
8. Uy xo'jaliklari o'rtasida norasmiy kredit munosabatlarini tashkil etish.
9. Jamg'armalarni investitsion resurslarga aylantiradigan institutlar va instrumentlarni rivojlantirish.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlari Mahkamasi Karorlari, Prezident Farmonlari va asarlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2010 yil
2. O'zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to'g'risida» gi Qonuni, 2000 yil 14 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” qonuni. Oliy ta’lim. Me`yoriy hujjatlar to’plami. T.: “Sharq” , 2001.
4. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonuni. Oliy ta’lim. Me`yoriy hujjatlar to’plami. T.: “Sharq” , 2001.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.
7. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr .
8. Karimov I.A. Demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shaklantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
11. Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning

eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral .

12. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2009.

13. Karimov I.A. Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan–T.:“O`qituvchi” HMUY, 2011.

14. Karimov I.A.Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi. – “Xalq so'zi” gazetasi.

15. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar , № 14 (5434).

16. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: Xalq so'zi gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, 13 (5687)-soni.

## **II. Maxsus adabiyotlar**

16. «Finansy» uchebnik 2-e izdanie, pereryt. i dop. S.A.Belozerov, S.G.Gorbushina i dr, pod red. V.V.Kovaleva. – M.: TK Velbi, Iz-vo Prospekt. 2005

17. Finanst: uchebnik dlya studentov vuzov. Pod re. G.B.Polyaka 3-e izd. perereibat i dop. M: YuNITI – DANA, 2007

18. Belozorov S.A. Suhnost i funktsii finansov domashnix xozyaystv. SPBGU. Ser 5 ekonomika 2006

19. A.V.Vahobov, T.S.Malikov. Moliya. Darslik. T.: noshir, 2012 yil

20. Z.Yu.Yuldashev, T.S.Malikov Moliya: Uy xo'jaliklari moliyasi. T: "Iqtisod-moliya" 2008

21. D. Tojibaeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T. Fan va texnologiya 2007 yil

### **III. Statistik to'plamlar**

22. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: O'zbekiston, 2011.

23. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.

24. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

### **IV. Internet ma'lumotlari**

25. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

26. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

27. [www.google.uz](http://www.google.uz)

28. [www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)

29. [www.allbest.ru](http://www.allbest.ru)

30. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)

31. [www.aport.ru](http://www.aport.ru)

32. [www.revolution.ru](http://www.revolution.ru)

33. [www.5ballov.ru](http://www.5ballov.ru)

34. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

35. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)

36. [www.cbu.st.uz/uz/press](http://www.cbu.st.uz/uz/press)

37. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)